

EKOLOGIK BARQARORLIK, QISH MAVSUMIGA TAYYORGARLIK VA YONG‘IN XAVFSIZLIGI MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyev huzurida yig‘ilish bo‘lib o‘tdi.

Yig‘ilishda ekologik barqarorlik, shu jumladan, chiqindilarni qayta ishlash masalalari atroflicha ko‘rib chiqildi, shuningdek, mutasaddilarning qishga tayyorlik yuzasidan hisobotlari tinglandi.

Avvalo, Toshkent shahrida ekologik vaziyatni yaxshilash bo‘yicha maxsus komissiyaning hisoboti tinglandi. Havo ifloslanishiga qarshi ko‘rilayotgan, ifloslanish manbalarini aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘nalishida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar muhokama qilindi.

Ta’kidlanganidek, oxirgi kunlarda mamlakatimiz hududi bo‘ylab sovuq antitsiklon ta’siri kuchayib bormoqda. Natijada havo bosimi oshib, harorat pasaymoqda, inversiya hodisalari kuchaymoqda. Bunday sharoitda havodagi mayda zarrachalar yuqoriga ko‘tarilmay, pastki qatlamlarda to‘planib qolmoqda. Meteorologik sharoitlar tufayli havoning tabiiy tozalanish sur’ati sekinlashmoqda.

So‘nggi kunlarda havoni ifloslantirayotgan manbalarni aniqlash va ularning faoliyatiga chek qo‘yish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida axborot berildi. Issiqxonalar, qurilish maydonlari, avtotransport vositalari va noqonuniy faoliyat yurituvchi obyektlar yuzasidan o‘tkazilgan tekshiruvlar, shahar bo‘ylab ko‘chalarni namlash, arirlarni tozalash, favvoralarni ishg tushirish kabi barqarorlashtirish tadbirlari shular jumlasidan. Kuchaytirilgan tartibda reydlar va profilaktika ishlari olib borilmoqda.

Prezidentimiz mazkur choralarni nafaqat poytaxtda, balki hududlarda ham tizimli davom ettirish, aniqlangan qonunbuzarliklarni tezkor bartaraf etish, havoga ta’sir ko‘rsatuvchi barcha omillarni qat’iy nazorat ostiga olishni topshirdi.

Maishiy chiqindilardan elektr energiyasi ishlab chiqarish bo‘yicha 933 million dollarlik loyihalar 6 ta hududda — Andijon, Namangan, Farg‘ona, Samarqand, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida boshlangan, ammo boshqa viloyatlarda bu borada jiddiy harakat kuzatilmayapti. Boshlangan loyihalarda ham investorlarni infratuzilma — yo‘l, elektr, suv bilan ta’minlash ishlari talab darajasida emas.

Viloyatlar hokimliklari va Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasiga kamchiliklarni bartaraf etib, kelgusi yilda qolgan hududlarda ham shunday loyihalarni boshlash topshirildi.

2030-yilgacha maishiy chiqindi poligonlarini 50 foizga qisqartirish belgilandi. So‘nggi yillarda 47 ta poligon faoliyati tugatilib, rekultivatsiya qilindi, natijada 243 gektar yer tabiatga qaytarildi.

Lekin hozirda ishlayotgan 132 ta poligonning aksariyatida halgacha himoya devorlari, “yashil belbog‘”, suv ta’minoti va ekologik xavfsizlik inshootlari tashkil etilmagani ko‘rsatib o‘tiladi.

— Bu atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatayapti va aholi e’tirozlariga sabab bo‘lyapti. Shu bois, maishiy chiqindi poligonlarini ekologik xavfsiz hududga aylantirish zarur. Birinchi navbatda, odamlarning sohadan rozligiga erishishimiz kerak. Bu masalaga faqat chiqindini boshqarish emas, balki sanoat, energetika, ekologik madaniyat bilan uzviy bog‘liq yo‘nalish sifatida yondashish lozim, — dedi davlatimiz rahbari.

Mutasaddilarga rekultivatsiya qilingan 47 ta poligon yerini qayta foydalanishga

kiritib, ular da “yashil maydon”lar barpo qilish, yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish kerakligi ko‘rsatib o‘tiladi. Mavjud poligonlarning barchasi atrofida “yashil belbog‘” yaratish, daraxt va ko‘chat ekish ishlarni poligonlarning yarmida bahor mavsumida, qolgan yarmida kuz mavsumida yakunlash vazifasi qo‘yildi.

2026-yildan bu ishlarga respublika byudjetidan har yili kamida 150 milliard so‘m ajratib borilishi belgilandi.

Oxirgi ikki yilda avvallari qayta ishlanmagan sanoat va xavfli chiqindilarni qayta ishlash darajasi 4,5 foizga olib chiqildi. Mazkur ko‘rsatkich kamligi qayd etilib, sanoat va xavfli chiqindilar hosil bo‘layotgan hamda saqlanayotgan joylarni xatovdan o‘tkazib, ularni qayta ishlash hamda utilizatsiya qilish bo‘yicha kamida 1 tadan loyihani boshlash zarurligi ta’kidlandi. Xavfli chiqindilarni nazorat qilish bo‘yicha yagona axborot-monitoring platformasini ishga tushirish topshirildi.

Ta’kidlanganidek, imtiyozli shartlarda suyultirilgan gaz yetkazib berishda kamchiliklar saqlanib qolmoqda, talon-taroj holatlari uchramoqda. “Hududgazta‘minot” tizimiga bu holatlarga chek qo‘yish, hududma-hudud yurib, aholining mumamlarini hal etish topshirildi. Eskirgan elektr tarmoqlari va ortiqcha yuklamada ishlayotgan transformatorlarni xatovdan o‘tkazib, ularning barqaror ishlashini ta’minlash vazifasi qo‘yildi.

Shuningdek, 1800 kilometr elektr tarmoqlarida ta’mirlash ishlari sifatiz bajarilgani aniqlangan. Bosh prokuraturaga mazkur holatlarni o‘rganish va qonun ustuvorligini ta’minlash, “Energoinspeksiya”ga esa nazorat ishlarni yangicha yondashuv asosida tashkil qilib, favqulodda tartibda ishlashga o‘tish topshirildi.

Qish mavsumida energiya resurslari aholiga uzluksiz yetkazib berilishi shartligi alohida ta’kidlandi.

Yig‘ilishda yong‘in xavfsizligi masalalariga ham to‘xtalib o‘tiladi.

Mamlakatimizda 44 mingdan ziyod ko‘p qavatli binolarda yong‘in xavfsizligi holatini to‘liq o‘rganish, favqulodda vaziyatlar tizimi bunday xavf-xatarlarga qarshi harakat qilishga shay turishi zarurligi ta’kidlandi.

Binolarning tashqi devorlarida kuchli yonuvchan materiallarni qo‘llashni taqiqlovchi qat’iy talablarni qonun hujjatlariga kiritish vaqti kelgani ta’kidlandi. Shu munosabat bilan ko‘p qavatli uylarda qurilish normalari va yong‘in xavfsizligi qoidalarini xalqaro tajribaga moslash hamda mas’ul rahbarlar javobgarligini kuchaytirish bo‘yicha qonun loyihasini ishlab chiqish topshirildi.

Kommunal xizmatlar ishini muvofiqlashtirish va favqulodda vaziyatlarda tezkor harakat qilish tizimini takomillashtirish masalalari muhokama qilindi. O‘tgan mavsumda poytaxtda to‘plangan tajriba asosida respublikaning boshqa hududlari kesimida ishchi guruhlar tashkil etish, barcha kommunal xizmatlar va boshqaruv servis kompaniyalarini FVV dispetcherlik tizimiga bog‘lash va xonadonbay profilaktika ishlarni kuchaytirish vazifasi qo‘yildi.

O‘za

EKSPORTNI OSHIRISH VA TADBIRKORLAR UCHUN QULAY MUHIT YARATISH BO‘YICHA TAKLIFLAR KO‘RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 1-dekabr kuni eksport salohiyatini oshirish va tadbirkorlarning davlat xizmatlaridan foydalanishini soddalashtirish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

O‘zbekiston 2030-yilga qadar eksport hajmini 45 milliard dollarga yetkazishni maqsad qilib qo‘ygan. Mazkur ko‘rsatkichga erishish uchun an’anaviy bozorlar bilan cheklanmasdan yuqori marjali yangi bozorlarga chiqish zarur.

Bu borada tashqi bozorlardagi yetakchi iste’mol segmentlari va yuqori talabga ega mahsulotlar bo‘yicha chuqur tahlil olib borildi. Natijada qurilish materiallari, yengil sanoat, elektrotexnika, oziq-ovqat, maishiy kimyo, mashinasozlik va metallarga oid yo‘nalishlarda eksportni yanada oshirish uchun mamlakatimizda katta zaxira hamda imkoniyat borligi aniqlandi.

Shu munosabat bilan taqdimotda istiqbolli bozor hisoblangan mamlakatlar bilan imtiyozli savdoni yo‘lga qo‘yish, savdo-iqtisodiy munosabatlarni faollashtirib, eksport-import hajmi o‘shishiga mos ravishda chegara o‘tkazish punktlari infratuzilmasi va quvvatini kengaytirish zarurligi qayd etildi.

Mutasaddilar mahsulotlarimizning tashqi bozorlarda egallagan o‘rni, talab yuqori bo‘lgan tovar turlari, xorijiy sheriklar bilan amalga oshirilayotgan hamkorlik loyihalarini hamda eksportni diversifikatsiya qilish bo‘yicha bajarilayotgan ishlar yuzasidan axborot berdi. Mavjud salohiyatdan to‘liq foydalanish, yangi bozorlarni ochish va tashqi savdo mexanizmlarini soddalashtirish topshirildi.

Bugungi kunda 81 ta davlat idorasi tomonidan tadbirkorlarga 739 turdagi xizmatlar ko‘rsatilmoqda.

O‘za

Noyabr sarhisobi

SIYOSIY IRODA va QAT’IY POZITSIYA ZAMIRIDAGI XALQPARVARLIK

YOXUD MUHIM BO‘LMAGAN ISHNING O‘ZI YO‘Q

Bir kam sakson yoshli otam telekanallar orqali beriladigan axborot dasturlarining birortasini o‘tkazib yubormaydi. Kamiga nabiralarga aytib, ayrim saytlarning yangiliklar tasmasiga ulanib olgan. Xullas, ko‘pincha bir qo‘lida televizor puliti, ikkinchisida mobil telefon — yangiliklarni kuzatishni, siyosiy-ijtimoiy voqealardan xabardor bo‘lib borishni yaxshi ko‘radi. Yaqinda otam bilan suhbatimiz quyidagicha kechdi:

— Oxirgi paytlarda yurtda juda olamshumul ishlar bo‘lyapti-da, shularni gazetalarimga yozayapsizlarmi?

— Ha, dada, yoritaypmiz.

— Hammasi sahifalarga sig‘yaptimi? Voqealar ko‘lami juda keng-da. Shunga so‘rayapman.

— Sig‘yapti, eng muhimlarini batafsil yoritamiz.

— Davlat rahbarining tinim bilmay qilayotgan ishlari orasida nomuhimi yo‘q-ku. Javobimdan xijolat tortdim.

— To‘g‘ri, yozmasa bo‘lmaydigan ishlar ko‘p. Bilasiz-ku, gazetamiz ayrim nashrlardek yangilik haqida bir marta xabar



berish bilan cheklanmaydi. Muallif, tahlilchi, ekspertlarimiz ko‘p, voqealarga munosabat davomli berib boriladi, mavzuning mohiyati tahlil qilinadi.

— Ha, shundoq bo‘lsin, mana bu ishlaring yaxshi.

1

E’tiqodida, so‘zida sobit turish, har qanday vaziyatda ham o‘zining qat’iy pozitsiyasiga ega bo‘lish va uni himoya qilish sifatlarini

Davomi 3-betda

KONSTITUTSIYA — DUNYOVIY DAVLAT KAFOLATI

5

Tojikistondan maktub

BESH BARMOQ BIRIKSA, MUSHT BO‘LAR

O‘zbekiston Prezidentining “Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida” maqolasini o‘qib...

Har qanday davlat va millatning har bir davrda o‘z yo‘lboshchisi bo‘ladi. Mamlakat va millatning farovonligi, obro‘-e’tibori, kelajagi ko‘p jihatdan shu yetakchiga bog‘liq ekani ham haqiqat. O‘ta donishmand va siyosiy barkamol davlat rahbari shu mamlakat fuqarolarining baxti, faxridir.

Shu ma’noda, Prezident Shavkat Mirziyoyev ko‘p millatli O‘zbekiston xalqiga Parvardigor inoyat qilgan ulug‘ yo‘lboshchi ekani hech kimga sir emas. Bugun butun jahon O‘zbekistonga havas bilan qarayotir. Buning sababi mamlakat yetakchisining mashaqqatli mehnati va donishmandlik qobiliyatidir. Mamlakatga borgan har bir mehmon buni chin dildan his etadi, sezadi. Shavkat Mirziyoyev nafaqat O‘zbekistonni yangi yo‘lga boshladi, balki butun Markaziy Osiyo rahbarlarining boshini biriktira oldi.

Davomi 2-betda

O‘zbekiston Prezidentining “Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida” maqolasini o‘qib...

Boshlanishi 1-betda

Shunday qilib, ko‘hna mintaqamiz yangi Markaziy Osiyoga aylandi. O‘zbekiston yo‘lboshchisining yiroqni ko‘zlagan adolati va donishmandona taktik hamda strategik siyosati ko‘plarni maftun etdi.

2024-yil yozida “Vatandosh” jamiyatining “Chinor” loyihasi sharafigi bilan Toshkent, Samarqand va Buxoro shaharlarini tomosha qilib, mamlakatning har jihatdan yangilanayotganini o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim. Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan besh barmoq — Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekiston birlashib, musht bo‘lishga erishdi. Bu musht birovga hamla qilishga emas, balki yagona maqsad — mintaqada yashovchi xalqlarning turmush darajasini yanada yaxshilashga xizmat qilmoqda. Bu jarayonda O‘zbekiston rahbarining tashabbuskorligi o‘lqishga sazovordir.

“Bugun biz chinakam birdamlik bosqichiga o‘tyapmiz, — deb yozadi Shavkat Mirziyoyev tarixiy maqolasida. — Bizning mintaqamizda uzoq yillar davomida ilk bor birgalikda oldinga qarab borishimiz uchun poydevor bo‘lib xizmat qilayotgan o‘zaro ishonch, yaxshi qo‘shnichilik va hurmat muhiti shakllanmoqda”.

Darhaqiqat, yangi Markaziy Osiyoning jahon hamjamiyatiga o‘zining mustaqil va adolati ovozi borligini namoyish etishi haqiqiy jasorat bo‘ldi. Bu qudratli davlatlarning yangi Markaziy Osiyo bilan teng darajada munosabat o‘rnatishga olib keldi. “Markaziy Osiyo — Xitoy”, “Markaziy Osiyo — Rossiya”, “Markaziy Osiyo — AQSH”, “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” sammitlari buning yaqqol dalilidir.

Shavkat Mirziyoyevning har bir katta-kichik imkoniyatdan unumli foydalanishi besh davlat rahbarlari orasidagi munosabatlarni yanada samimiylashtirishga qulay muhit hosil qildi.

O‘tmishdagi voqea-hodisalar va muammolari eslasangiz, vujudingizni og‘riqli hasrat o‘raydi. Nahotki, XXI asrda shunday



Ne‘mat Muhammad SAID,
Tojikiston matbuoti
a‘lochisi, shoir

kunlarni boshdan o‘tkazgan bo‘lsak?! Tarixni ijobiy tomonga o‘zgartira bo‘lar ekan-ku!

Mintaqaviy hamkorlik borasida boshlangan yangi bosqichning eng muhim yutuqlaridan biri — chegara masalalari uzil-kesil hal etilganidir. Joriy yil mart oyida O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Tojikiston o‘rtasida uch davlatning chegaralari tutashgan nuqta to‘g‘risidagi shartnoma hamda Xo‘jand deklaratsiyasining imzolangani tarixiy ahamiyatga molik hodisa bo‘ldi. Buni haqli ravishda olamshumul voqea deb atash mumkin.

Prezidentning maqolasini o‘qir ekanman, unda oliy darajadagi rejalarni ko‘rdim. Bular besh yetakchi tomonidan aytilgan muddatda va so‘zsiz bajarilishiga ham ishonchim komil. Chunki Markaziy Osiyoda rahbarlararo va xalqlararo yuksak ishonch paydo bo‘ldi. Bu yerda ikkilanish yo‘q. O‘zaro teng manfaatdorlikning afzalligini hamma sezib, bilib, qabul qilib turibdi. Borish-kelish, olish-berish haqqoniy insof yuzasidan yo‘lga qo‘yilmoqda. Mintaqadagi tabiiy resurslardan oqilona va adolatli foydalanish lozimligi e‘tirof etilayotir. Ayniqsa, tashqi siyosatda maslahatli

va kelishilgan holda yo‘l tutish to‘g‘ri deb topilayotir.

Axir bu qadimiy mintaqadan Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ulug‘bek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Maxtumquli, Abay, Chingiz Aytmatov singari jahonga tanikli mutafakkirlar yetishib chiqqan. Dunyoning barcha go‘shasida ularni tanishadi, bilishadi va hurmat qilishadi. Ularini olam allaqachon tan olib bo‘lgan. Bu mutafakkirlarning e‘tirof etilishi — Markaziy Osiyoning e‘tirof etilishi. Bu haqiqatni hech qachon unutmashimiz lozim.

Omon bo‘lsak, 2040-yilgacha mo‘ljallangan olamshumul rejalarning amaliy natijasini ham ko‘ramiz, albatta. Bunga ishonch bor. Aminmanki, chegaralardagi o‘tish-qaytish bilan bog‘liq vaziyat yanada osonlashadi. Adabiy va madaniy aloqalar ham yanada mustahkamlanadi. Sayyohlarning borish-kelishiga yanada qulaylik yaratiladi. Mintaqadagi har bir davlatning milliy bayrami barcha uchun shodiyona tusini oladi va bu xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik, samimiyligni mustahkamlaydi. Yangi Markaziy Osiyo davlatlari markaziy televidenyesida “Do‘stlik rishtalari” nomli teleko‘prik tashkil etiladi. Unda mamlakatlarining mashhur shaxslari haqidagi ko‘rsatuvlar namoyish etiladi. Bu xalqlar ruhini ko‘tarishda munosib o‘rin tutadi. Mintaqa tarixiga oid eng yaxshi va hozirjavob asarlar uchun sovrinlar belgilanadi. Ular barcha tillarga tarjima qilinadi. “Markaziy Osiyo” jurnali ta‘sis etiladi.

Bu fikrlar Prezident Shavkat Mirziyoyev maqolasining ruhidan shundaygina sezilib turibdi. Maqola mavzuga juda muqobil yozilgan, unda nafaqat yangi O‘zbekiston, balki Markaziy Osiyo davlatlari va xalqlarining o‘tmishi, buguni va porloq kelajagiga xolisona baho berilgan. Oldinda muhim rejalar borligi ta‘kidlangan. Bu reja va maqsadlar Tojikistonga ham tegishli bo‘lgani uchun o‘z fikrimni bayon qilishni ma‘qul topdim.

Xullas, O‘zbekiston Prezidenti ijobiy yangilanish jarayonining tashabbuskori sifatida tanildi. Buni butun dunyo ochiq-oydin tan olmoqda va e‘tirof etmoqda.



Markaziy Osiyo bugun yaxlitlikda, hamjihatlikda rivojlanishni maqsad qilgan va shu maqsad yo‘lida dadil odimlayotgan mintaq. Prezidentimizning “Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida” maqolasida ayni jihatlar keng tahlil qilib berildi.

Maqolada Markaziy Osiyoning mintaqaviy integratsiyasi ilmiy jihatdan asoslangan, o‘rganiladigan model sifatida taqdim etiladi. Xususan, chegara masalalari to‘liq hal etilishi bilan hududdagi eng murakkab muammolarga yakun yasaldi. Bu nafaqat siyosiy, balki geosiyosiy voqeadir. Endi Markaziy Osiyoda “chegara” so‘zi “devor” emas, “ko‘prik” ma‘nosini anglatadi.

Suv-energetika sohasidagi qator loyihalar, jumladan, Qambarota-1, Rog‘un GESlari, Chashma bulog‘i, Qayroqqum suv ombori bo‘yicha kelishuvlar resurslarni boshqarishda hamkorlikni kuchaytiradi.

Iqtisodiy ko‘rsatkichlar sakkiz yilda yalpi ichki mahsulot 2,5 baravar (520 milliard dollar), o‘zaro savdo hajmi 2 baravar (11 milliard dollar), o‘zaro investitsiyalar qaymati 5,6 baravar oshganida namoyon bo‘ldi. Bu jahon o‘rtacha o‘shishdan 2 baravar yuqori natija bo‘lib, asosiysi, bunga mintaqaning ichki resurslari hisobidan erishildi.

Shuningdek, maqolada birinchi marta “Markaziy Osiyo o‘ziga xosligi” haqida so‘z bordi. Mintaqada aholining 62-65 foizi 35 yoshgacha yoshlardan iborat. Ichki turizm 80 foizdan oshdi. ID karta bilan erkin harakatlanish mumkin. Yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi oshgan.

Shu o‘rinda joriy yil oktabrda Farg‘ona davlat universitetida bo‘lib o‘tgan Tinchlik forumi mamlakatlarimizning tinchlik va totuvlikni mustahkamlashga o‘zaro intilishining yaqqol amaliy tasdig‘i bo‘lganini ta‘kidlash joiz. Binobarin, mazkur forum Markaziy Osiyodagi bunyodkorlik, tinchlik, totuvlikning amaliy ifodasi bo‘ldi.

So‘nggi yillarda ijtimoiy yo‘nalishda ham hamkorlik sezilarli darajada faollashdi. Markaziy Osiyo yetakchi ayollarining muntazam muloqot platformasi va yoshlar forumlari tashkil etilyapti. 2022-yildan buyon universitet rektorlari va olimlarining yillik forumlari o‘tkazib kelinmoqda. Davlatlar o‘rtasida madaniyat yillari, san‘at ko‘rgazmalari, xalqaro konsertlar, sport musobaqalari va boshqa tadbirlar doimiy tashkil etilmoqda. Ushbu madaniy-gumanitar



Xalqimizda “Qo‘shning tinch — sen tinch” degan maqol bor. Shu ma‘noda, maqolada Afg‘oniston masalasiga ham keng e‘tibor qaratilgani diqqatga sazovor. Afg‘onistonn mintaqaviy jarayonlardan ajratib bo‘lmaydi. Bu oddiy siyosiy ibora emas, balki geografik, iqtisodiy va xavfsizlik nuqtayi nazaridan isbotlangan haqiqatdir.

Afg‘oniston va Markaziy Osiyoning umumiy chegarasi 2000 kilometrdan ortiq. Bir daryo, bir bozor va bir xil xavf-xatarlar bilan bog‘langan hayotiy makon bu. Transfarg‘on temir yo‘li loyihasi ana shu umumiylikni rivojlantirishda muhim kalit vazifasini o‘taydi. Mazkur loyiha orqali Markaziy Osiyodan Janubiy Osiyo va Hind okeaniga chiquvchi eng qisqa, eng tejamkor va strategik jihatdan eng muhim transport yo‘lagi paydo bo‘ladi. Hisob-

kitoblariga ko‘ra, bu orqali tranzit vaqti 10-15 kundan 3-5 kungacha kamayadi, yuk tashish narxi 30-40 foiz arzonlashadi.

Bu orqali nafaqat milliardlab dollarlik iqtisodiy foyda, balki Afg‘onistonning 40 million aholisi uchun real ish o‘rinlari, infratuzilma vujudga keladi. Qolaversa, so‘nggi yillarda O‘zbekiston, Qozog‘iston va Tojikiston



toimonidan afg‘on yoshlariga berilgan o‘quv grantlari soni 5000 dan oshdi. Afg‘onistonn muammo emas, imkoniyat sifatida ko‘rish — bugungi Markaziy Osiyoning eng katta strategik yutug‘i.

Prezidentimiz maqolasida butun mintaqaning yangi davri chuqur tahlili, mazmun-mohiyati bilan e‘tiborga molik. “Biz devor emas, ko‘prik qurmoqdamiz” degan oddiy, ammo chuqur falsafiy iboraning ilmiy asoslangan shakli.

Yangi Markaziy Osiyo — umumiy uyimiz, umumiy orzumiz va g‘ururimiz. Bu uyda har bir xalq o‘z o‘rnini topadi, har bir yosh o‘z kelajagini ko‘radi.

**Bahodirjon SHERMUHAMMADOV,
Farg‘ona davlat universiteti rektori**



Yangi tahrirdagi Konstitutsiya inson huquqlarining kafolati sifatida demokratik va insonparvar davlatni shakllantirishning strategik dasturi vazifasini o‘tamoqda. U eng taraqqiy topgan, rivojlangan davlatlarning konstitutsiyaviy tajribalariga tayanish bilan birga tarixda sinalgan umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan hujjattir. Davlatimiz rahbari ta‘biri bilan aytganda, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasidir.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda inson huquq va erkinliklarni ta‘minlash davlatning oliy maqsadi deya e‘lon qilinib, unda inson huquqlariga oid normalar 3 baravardan ziyod oshirildi. Inson huquq va erkinliklari har bir vazirlik va idora faoliyatining mazmuniga aylanishi qat‘iy talab sifatida belgilandi. Bu davlat organlari hamda mansabdor shaxslarning faqat va faqat fuqarolarning manfaatlarini ko‘zlab faoliyat yuritishiga asos bo‘ladi.

Qonunlardagi noaniqliklarni inson foydasiga hal bo‘lishi huquqiy davlatning muhim belgisidir. Bosh qonunimizda mazkur qoida belgilanib, davlat va inson o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilikdagi noaniqliklar, turli tushunmovchiliklar bartaraf etilmoqda, fuqarolarning ortiqcha ovoragarchiligining oldi olinmoqda. Shuningdek, Konstitutsiyada davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo‘llanadigan huquqiy ta‘sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo‘lishi kerakligi mustahkamlandi.

Bugun amaldagi qonunchilik mazkur konstitutsiyaviy qoidalarga hamohang tarzda takomillashtirilib, fuqarolarga qulay huquqiy kafolatlar yaratilmoqda. Misol uchun, Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga tegib tibbiy yordam hamda yong‘in-qutqaruv bo‘linmalari transport vositalaridan foydalangan holda sodir etilgan qoidabuzarliklar yuzasidan ma‘muriy ishlarni ortiqcha qog‘ozbozlikni bartaraf etish maqsadida tugatish tartibi joriy etilishini nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Bundan tashqari, maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilgan yo‘l harakati qoidalari buzilishi to‘g‘risidagi ma‘lumot jarima solish haqida qaror chiqarishga vakolatli bo‘lgan shaxsga qirg sakkiz soat ichida yuborilmagan taqdirda ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida ish yuritilmasligi belgilandi.

Shaxsni sudning qarorisiz 48 soatdan ortiq muddat ushlab turish mumkin emasligi belgilandi. Ya‘ni shaxsning erkinligini cheklash bilan bog‘liq har qanday harakat faqatgina sud qarori asosida amalga oshirilishi shart. Ushbu qoida tergov organlari tomonidan insonlarni noqonuniy hibsga, asossiz qamoqqa olish va saqlashga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan. Bu orqali xalqaro e‘tirof etilgan “Xabeas corpus” institutini qo‘llash ko‘lami yanada kengaydi.

O‘tgan yillarda Konstitutsiyamizda belgilangan inson huquqlarini himoya qilishning qonunchilik bazasi mustahkamlandi. Jumladan, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani) to‘g‘risida”gi qonunlarning qabul qilinishi bu borada muhim qadam bo‘ldi.

Bosh qonunimizda har kimning O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va xalqaro shartnomalarga muvofiq insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha mavjud ichki vositalaridan foydalanib bo‘lingan bo‘lsa, murojaat etishga haqligini mustahkamlandi. Bu fuqarolarning huquq va erkinliklari himoyasi nafaqat milliy qonunchilikda belgilangan normalar, balki xalqaro huquq asosida ham himoyalinishini ta‘minlamoqda.

Huquqiy davlatni qonun ustuvorligisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu boisi, qonun

Dilmurod ARTIKOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

ustuvorligini ta‘minlashda to‘g‘ridan to‘g‘ri ishlovchi va xalqchil qonunlarning qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega. Prezidentimiz Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 2024-yil 18-noyabrda birinchi majlisida bu borada muhim masalalarni ilgari surgandi. Xususan, davlatimiz rahbari qonun loyihalarini sifat bo‘yicha e‘tirozlar borligiga ko‘z yumib bo‘lmashligini qayd etib, to‘g‘ridan to‘g‘ri ishlaydigan va aniq ijro mexanizmlariga ega qonunlar qabul qilish lozimligini ta‘kidlagan edi.

Shundan kelib chiqib, bugun parlament tomonidan to‘g‘ridan to‘g‘ri ishlaydigan va aniq ijro mexanizmlariga ega qonunlar qabul qilishga alohida urg‘u berilmoqda. Buning uchun qonun ijodkorligining huquqiy asoslari takomillashtirildi.

Qonun ijodkorligi faoliyatining sifati yangi qonunlarning Konstitutsiyaga, milliy qonunchilik, xalqaro huquqning umume‘tirof etilgan prinsiplari va normalariga, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlariga muvofiqligini ta‘minlovchi tartib-taomil va mexanizmlar samaradorligiga ko‘p jihatdan bog‘liq.



2025-yil 10-aprel kuni “Qonunlar loyihalarini O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish va ko‘rib chiqish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Mazkur hujjat bilan O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga qonun loyihasi parlamentga kiritishda qonun va xalqaro shartnoma loyihasining (matnining) o‘tkazilgan huquqiy ekspertizasi natijalari, shuningdek, qonun loyihasining korruptsiyaga qarshi ekspertizasi va u bo‘yicha o‘tkazilgan jamoatchilik muhokamasi natijalarini taqdim etish to‘g‘risidagi talabning belgilanishini nazarda tutuvchi qo‘shimchalar kiritildi.

Shuningdek, qonunchilik tashabbusi huquqi subyektiga o‘zi kiritilgan qonun loyihasi ikkinchi o‘qishda qabul qilinishiga qadar O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga taklif kiritish orqali uni qabirib olish huquqini berishning huquqiy asosi belgilandi.

Albatta, ushbu o‘zgarishlar qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlarining qonun ijodkorligi sohasidagi faoliyati sifatini oshirish, qonunlarning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi rolini mustahkamlashga xizmat qilish bilan bir qatorda bosh qonunimizda belgilangan huquqiy davlatchilik g‘oyalari natiija amalga oshirishda muhim asos vazifasini bajaradi.

O‘tgan yillarda mamlakatimizda iqtisodiyotni jadal rivojlantirish orqali aholi turmush darajasini oshirish borasida keng ko‘lamli ishlar qilindi. Ijtimoiy-iqtisodiy hayotning turli jabhalarida liberalashtirish, ochiqlik va oshkoralikni ta‘minlashning tizimli choralari ko‘rildi.

Asosiy qonunimizda davlat qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini ta‘minlashi hamda tadbirkorlar qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirish va o‘z faoliyati yo‘nalishlarini mustaqil tanlashga haqli ekani belgilab qo‘yilgan. Mazkur konstitutsiyaviy qoidani amalga oshirish natijasida mamlakatimizda barqaror iqtisodiy muhit shakllanmoqda.

Xususan, joriy yilning to‘qqiz oyida iqtisodiyotimiz prognozdan ancha yuqori sur‘atda — 7,6 foiz o‘tdi. Natijada nufuzli xalqaro reyting agentliklari mamlakatimiz iqtisodiy istiqbollari yuqori baholamoqda. “Fitch Ratings” ilk bor mamlakatimiz suveren reytingini bir pog‘ona oshirgan bo‘lsa, “Moody’s” va “S&P Global” o‘z kutilmasini “barqaror”dan “ijobiy”ga o‘zgartirdi.

Eng asosiysi, aholi daromadi 18,4 omonatlar 35,3 o‘rtacha ish haqi esa 19,2 foiz o‘tdi. O‘z navbatida, bu aholi va biznes o‘rtasida ishonch muhiti mustahkamlangani, yangi ish o‘rinlari va daromad manbalari kengayayotganini ko‘rsatmoqda. Mamlakatimizda bunday iqtisodiy o‘ishni yil yakunigacha saqlab qolib, yalpi ichki mahsulot qiymatini 135 milliard dollardan oshirish iqtisodiy kompleksning asosiy vazifasi etib belgilab olindi.

Qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini ta‘minlashda biznes uchun byurokratiya, ovoragarchilik va boshqa ma‘muriy to‘siqlarni bartaraf etish muhim ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda byurokratiyani qisqartirishga qaratilgan 9 ta farmon va qaror qabul qilindi. Davlat xizmatlari markazlari, Yagona portal platformasi, “Raqamli hukumat” kabi tizimlarning tashkil etilishi natijasida davlat xizmatlari xalqimiz uchun yanada qulay, tezkor va shaffof bo‘lmoqda.

Xususan, 2017-yilda faqat 444 turdagi davlat xizmati ko‘rsatilgan bo‘lsa, bugun bu ko‘rsatkich 1040 taga yetdi. Bunda ko‘rsatilgan xizmatlar soni qariyb 10 barobar ko‘payib, 55 milliondan oshdi. 90 dan ortiq xizmatni proaktiv va kompozit shaklda ko‘rsatish yo‘lga qo‘yildi.

Raqamlashtirish natijasida 30 turdagi xizmatni real vaqt rejimida olish imkoniyati yaratildi. Hujjat almashinuvining elektron shakliga o‘tkazilishi aholining yiliga 23 milliard so‘m mablag‘i tejalisiga imkon bermoqda.

Davlat xizmatlari ekstrritorial tamoyil asosida ko‘rsatila boshladi. Shuningdek, “Biznesni 15 daqiqada boshlash” tamoyili amaliyotga joriy etilmoqda. Qisqasi, bosh qonunimiz mazkur islohotlarning huquqiy poydevori vazifasini bajarmoqda.

Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyamizda belgilangan “O‘zbekiston — ijtimoiy davlat” tamoyiliga sodiqlikni namoyon etmoqda. Jumladan, kambag‘allik darajasini 35 foizdan 6,6 foizgacha qisqartirishga erishildi. Bu o‘tgan davrda ushbu yo‘nalishdagi ishlarni

quyida to‘g‘ri tashkil qilish, mahallama-mahalla yurib, yangi tashabbuslarni topib, odamlar farovonligiga mas‘ul bo‘lgan viloyat, tuman hokimlari va xodimlarining moddiy-texnik imkoniyatlarini tubdan yaxshilanishi bilan bog‘liq. Joriy yil boshidan ishsizlik 4,9 foizga tushdi. Ehtiyojmand 302 ming oila kambag‘allikdan chiqdi. Yil yakunigacha kambag‘allik darajasi 6 foizgacha kamayishi kutilmoqda. Joriy yilda ilk bor 1435 ta mahalla kambag‘allikdan xoli hududga aylandi.

Mamlakatimizda ijtimoiy islohotlar haqida gapirganda, sport sohasini aytmaslikning iloji yo‘q. So‘nggi sakkiz yilda byudjetdan sportga berilayotgan yillik mablag‘ 250 milliard so‘mdan 3 trillion so‘mga oshdi. Mahallalarda, ayniqsa, chekka-chekka qishloqlarda 2000 ga yaqin sport maydonchasi barpo etildi, ularning soni har yili 500 taga oshirilyapti.

Bu ishlar yurtimizning nufuzli xalqaro musobaqalarda yuqori natijalarga erishishi va sporti yuksak darajada rivojlangan davlatlar qatoridan joy olishi uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Jumladan, Parijda o‘tgan olimpiya va paraliimpiya o‘yinlarida sportchilarimiz chinakam jasorat ko‘rsatib, 13-o‘rinni egallagan tashniga sazovor. Futbol bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasining ilk bor jahon chempionatiga yo‘llanmani qo‘lga kiritgani ham xalqimiz 34 yil kutgan tarixiy voqea bo‘ldi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning hayotga tatbiq etilishi yangi O‘zbekistonning o‘z oldiga qo‘ygan ustuvor maqsadlarini amalga oshirish, jamiyatni yanada taraqqiy ettirish, fuqarolarning erkinliklari, huquqlari va qonuniy manfaatlarini to‘laqonli ta‘minlashga xizmat qilmoqda.

Noyabr sarhisobi

SIYOSIY IRODA va QAT’IY POZITSIYA

ZAMIRIDAGI XALQPARVARLIK

yoxud muhim bo‘lmagan ishning o‘zi yo‘q

Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz rahbari 6-noyabr kuni AQSHga amaliy tashrifi doirasida Prezident Donald Trump bilan uchrashuv o‘tkazdi. Prezidentimiz dastlab Oq uyning Faxriy mehmonlar kitobida qayd yozib qoldirdi. So‘ng oval kabinetda o‘tkazilgan yetakchilar muzokarasida O‘zbekiston bilan AQSH o‘rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish, siyosiy muloqotni mustahkamlash, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar hamkorlikni kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Prezidentimiz Markaziy Osiyo davlatlari va AQSH yetakchilarining “C5+1” formatidagi sammitida ishtirok etdi. Donald Trump raisligida o‘tgan tabdirda Qozog‘iston, Qirg‘iz Respublikasi, Tojikiston va Turkmaniston davlat rahbarlari ham qatnashdi. Mamlakatimiz yetakchisi mintaqaviy savdo, transport va energetika sohalarini rivojlantirishning samarali mexanizmiga aylangan “C5+1” formatidagi sammit Markaziy Osiyo va AQSH o‘rtasidagi strategik muloqotni rivojlantirishda yangi bosqichni boshlab berishini ta’kidladi.

“C5+1” formati doirasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish maqsadida davlatimiz rahbari qator tashabbuslarni ilgari surdi. Avvalo, ishtirokchi mamlakatlarda navbati bilan joylashtiriladigan, doimiy faoliyat yuritadigan Kotibiyat ta’ sis etish taklifi bildirildi.

Davlat idoralari, kompaniyalar va moliya institutlari o‘rtasida tizimli muloqotni ta’minlash maqsadida vazirlar darajasida Investitsiyalar va savdo bo‘yicha muvofiqdastiruvchi kengash tuzish muhimligi qayd etildi. Shuningdek, “Markaziy Osiyo investitsiyaviy sherikligi” jamg‘armasini ishga tushirish dolzarb ekani ta’kidlandi.

Siyosat olamidagi mazkur salmoqli voqeadan so‘ng AQSH Prezidenti Donald Trump ijtimoiy tarmoqdagi sahifasida quyidagi postni yozib qoldirdi: “Amerika Qo‘shma Shtatlari va O‘zbekiston o‘rtasidagi misli ko‘rilmagan savdo-iqtisodiy kelishuvini e‘lon qilishdan mamnunman. Yaqin uch yil ichida O‘zbekiston Amerikaning muhim mineral, aviatsiya, avtomobil butlovchi qismlari, infratuzilma, qishloq xo‘jaligi, energetika va kimyo, axborot texnologiyalari va boshqa muhim tarmoqlariga qariyb 35 milliard dollar, kelgusi o‘n yilda esa 100 milliard dollardan ortiq investitsiya kiritadi va xaridlarni amalga oshiradi.

Men O‘zbekistomning yuksak hurmati Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga minnatdorlik bildiraman. Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi uzoq muddatli va samarali munosabatlarni intizorlik bilan kutamiz!”.

Mazkur tashrif natijasi o‘laroq, ya’ni “C5+1” sammiti doirasida mamlakatimiz tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari va Amerika tomoni bilan kelishgan holda AQSH Prezidenti vakili hamraisligida Amerika-O‘zbekiston ishbirolmonlik va investitsiya kengashini tashkil etish bo‘yicha kelishuvga erishilgan edi. Shu munosabat bilan davlatimiz rahbari 12-noyabr kuni “Amerika-O‘zbekiston ishbirolmonlik va investitsiya kengashini tashkil etish to‘g‘risida”gi farmonni imzoladi.

Hujjatda O‘zbekiston va AQSH o‘rtasidagi manfaatli savdo-investitsiyaviy va tijorat aloqalarini yanada kengaytirish va mustahkamlash hamda ishbirolmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ushbu yo‘nalishdagi ishlarni samarali tashkil qilish kabilar nazarda tutilgan.

2

BMTning Fan, ta’lim, madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti — UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi so‘nggi qirg‘ yilda birinchi marta Parijda joylashgan qarorgohidan tashqarida — qadimiy va navqiron Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan tom ma’nodagi tarixiy voqeadir. Bu xalqaro anjuman ham davlatimiz rahbarining tashabbusi va sa’y-harakati bilan o‘tkazildi. Unda 180 dan ziyod mamlakatdan 4600 vakil ishtirok etdi. Ushbu anjuman UNESCO Bosh konferensiyasi sessiyalarida eng ko‘p vakil qatnashgan tadbir sifatida e’tirof etildi.

Prezidentimiz tadbirning ochilish marosimidagi nutqida qayd etganidek, bunday nufuzli anjumaning Samarqandda o‘tkazilgani

dunyo hamjamiyatining yangi O‘zbekistondagi keng ko‘lamli, jadal islohotlar va ularning natijalarini ko‘rishga qiziqishi, ishonchi ortib borayotganidan dalolat.

Ikki hafta davomida Bosh konferensiya sessiyasi majlislari bilan bir qatorda 150 dan ziyod seminar, konferensiya, xalqaro ko‘rgazma va boshqa tadbirlar bo‘lib o‘tdi. Bir necha muhim qaror qabul qilindi. Anjumanda mazkur xalqaro tashkilotning yangi Bosh direktori saylandi. Ushbu lavozimga misrlik olim va siyosiy arbob Holid al-Ananiy munosib ko‘rildi.

Prezidentimiz 12-noyabr kuni Holid al-Ananiyni qabul qildi va yangi lavozim bilan tabriklab, kelgusi faoliyati muvaffaqiyatli bo‘lishiga tilak bildirdi. 2017-yildan buyon UNESCOga rahbarlik qilib kelgan Odri Azule xonim Prezidentimiz farmoniga binoan O‘zbekiston va UNESCO o‘rtasida fan, ta’lim va madaniyat sohaslaridagi hamkorlikni mustahkamlash, xalqimizning boy madaniy merosini keng ommalashtirish ishlariga qo‘shgan katta hisssasi uchun davlatimizning “Do‘stlik” ordeni bilan mukofotlandi.

3

Kuzning so‘nggi oyida mamlakatimizda yana bir tarixiy voqea ro‘y berdi. 13-noyabr kuni O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida “Markaziy Osiyo: umumiy ma’naviy-ma’rifiy meros — umumiy kelajak” mavzusida xalqaro kongress bo‘lib o‘tdi. Prezidentimiz kongress ishtirokchilariga tabrik yo‘lladi.

2017-yildan buyon Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvi o‘tkazib kelinadi. Mazkur uchrashuvning yettinchi 16-noyabr kuni Toshkentda bo‘lib o‘tdi. Unga raislik qilgan davlatimiz rahbari mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash bo‘yicha qator muhim takliflarni ilgari surdi. Sammitda Ozarbayjon Respublikasi ushbu formatga to‘la huquqli a’zo sifatida qabul qilindi.

Uchrashuv arafasida Prezidentimizning “Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida” sarlavhali maqolasi e‘lon qilindi. Unda mintaqamiz davlatlarining o‘zaro hamkorligi natijalari aniq misollar asosida tahlil qilingan, kelgusidagi vazifalar belgilab berilgan. Maqolada, jumladan, bunday satrlar bor: “Maslahat uchrashuvlari formati yo‘lga qo‘yilgan 2017-yil mintaqaviy hamkorlik tarixida tub burilish yasadi. Mintaqa yetakchilari ko‘p yillar mobaynida birinchi marta tashqi vositachilarsiz tizimli va muntazam muloqotni boshladilar. Bu ishonchga, ochiqlik va umumiy manfaatlarni anglashga asoslangan yangicha siyosiy tafakkur ramziga aylandi. Aynan Maslahat uchrashuvlari doirasidagi muloqot tufayli eski davrdan qolgan bir qator kelishmovchiliklarni bartaraf etish va ishonchsizlikdan haqiqiy hamkorlikka o‘tishga erishildi”.



Darhaqiqat, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining doimiy uchrashuvlari, o‘zaro ochiq muloqotlari naqadar yuksak natijalar berayotganini, ular mintaqamiz aholisi manfaatli uchun xizmat qilayotganini xalqlarimiz o‘z hayotida ko‘rib turibdi. Bu hamkorlik davlatlarimiz taraqqiyotida ham ifodasini topmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari Prezidentlari — Shavkat Mirziyoyev, Qosim-Jomart Toqayev, Emomali Rahmon, Sadir Japarov va Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev 15-noyabr kuni Islom sivilizatsiyasi markaziga tashrif buyurdi.

17-noyabr kuni Ko‘ksaroy qarorgohida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedovning tor doiradagi uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Ushbu tashrif so‘nggi yillarda namunalni tus olgan O‘zbekiston — Turkmaniston do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash yo‘lida muhim qadam bo‘lishi ta’kidlandi. Barcha sohada erishilayotgan ijobiy sur’at va faol aloqalar mamnuniyat bilan qayd etildi.

Ko‘ksaroy qarorgohida o‘tgan oliy darajadagi muzokaralar yakunida O‘zbekiston Respublikasi



Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov ommaviy axborot vositalari vakillari uchun bayonot berdi.

Prezidentimiz ushbu tarixiy davlat tashrifi qardosh mamlakatlarimizning strategik sherikligini yanada mustahkamlab, yangi bosqichga olib chiqishiga ishonch bildirdi.

4

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qatar Davlati Amiri Shayx Tamim bin Hamad Ol Soniyning taklifiga binoan 3-4-noyabr kunlari Ijtimoiy rivojlanish bo‘yicha ikkinchi jahon sammitida ishtirok etish uchun amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari sammitda ishtirok etib, global ijtimoiy adolatlarni mustahkamlash bo‘yicha tashabbuslarni ilgari surdi. Bugun jahon hamjamiyati va milliy hukumatlar ijtimoiy farovonlikni ta’minlash hamda aholi turmush darajasini oshirish yo‘lida birgalikda harakat qilyotganini ta’kidlandi. O‘zbekiston, o‘z navbatida, barqaror taraqqiyotga erishishga qaratilgan xalqaro hamkorlikning barcha formati va tashabbuslarini doim qo‘llab-quvvatlashi ma’lum qilindi.

Prezidentimiz global ijtimoiy adolat va barqaror taraqqiyotni mustahkamlashga qaratilgan qator taklif va tashabbuslarni bildirdi. Kambag‘allikka qarshi kurashishda xalqaro



hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish muhimligi ta’kidlandi.

— Rivojlanayotgan davlatlarning ijtimoiy dasturlariga resurslarni keng jalb etish maqsadida kambag‘allikka qarshi kurashishning yangi moliyaviy arxitekturasini yaratish vaqti keldi deb hisoblaymiz, — dedi davlatimiz rahbari.

Shu munosabat bilan kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga amaliy ko‘mak beradigan Global ijtimoiy adolat fondini ta’ sis etish taklif qilindi.

Prezidentimiz iqlim o‘zgarishining ijtimoiy hayotga ta’siri tobora kuchayib borayotganini ta’kidladi. Ekstremal ob-havo hodisalari, cho‘llanish va biologik xilma-xillikning yuqorilishi, avvalo, aholining zaif qatlamlari — fermerlar, mavsumiy ishchilar, ekologik vaziyati murakkab hududlarda istiqomat qiluvchi odamlar hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishni bandlik dasturlari bilan uyg‘unlashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish zarurligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari, O‘zbekiston BMT tomonidan ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e’lon qilingan

Orolbo‘yi mintaqasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yangi modelini ishga tushirish niyatida ekanini ma’lum qilib, mazkur tajribani jahon hamjamiyati bilan o‘rtoqlashishga tayyorligini bildirdi.

5

Noyabrda mamlakatimiz ichki hayoti ham qizg‘in voqealarga boy bo‘ldi. Jumladan, Tibbiyot xodimlari hamda Kasaba uyushmalari kuni va O‘zbekiston kasaba uyushmalari harakatining 120 yilligi ko‘tarinki ruhda nishonlandi. Har ikkala sana munosabati bilan Prezidentimiz soha vakillariga tabrik yo‘lladi. Shuningdek, Prezidentimizning “Tibbiyot xodimlari kuni munosabati bilan soha xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston kasaba uyushmalari harakatining 120 yilligi munosabati bilan soha xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida”gi farmonlari e’lon qilindi. Bundan tashqari, “Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarini qo‘llab-quvvatlash choralari to‘g‘risida”gi qaror imzolandi.

Ushbu qarorda davlat tibbiyot muassasalari xodimlarining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, moddiy manfaatdorligini oshirish, samarali ishlashi uchun munosib shart-sharoit yaratishga doir vazifalar aks etdi. Prezidentimiz 10-noyabr kuni tibbiyot va farmatsevtika xodimlari bilan uchrashuvda farmatsevtika sohasining zamonaviy tibbiyotdagi o‘rnini hisobga olib, bundan buyon ushbu bayramni “Tibbiyot va farmatsevtika xodimlari kuni” sifatida nishonlashni taklif qildi.

Davlatimiz rahbari 11-noyabr kuni Yangi Toshkentda yirik sport inshooti — zamonaviy futbol stadioni qurilishiga tamal toshi qo‘yish marosimida ishtirok etdi.

— Yangi Toshkent stadioni uchun hozir biz qo‘yadigan tamal toshi — bugungi mehnatimizning va ertangi g‘alabalarimizning asosidir. Ishonamanki, bu ulkan inshoot yoshlar uchun ilhom, xalqimiz uchun iftixor ramzlardan biri bo‘lib, yurtimizdagi millonlab futbol muxlislariga katta sovg‘a bo‘ladi, — dedi Prezidentimiz.

Davlatimiz rahbari 26-noyabr kuni Olimpiya shaharchasidagi stadionda Prezident Olimpiadasining tantanali ochilish marosimida ishtirok etdi va nutq so‘zladi.

— Bugun Yangi O‘zbekiston timsoli bo‘lgan mana shu muazzam Olimpiya shaharchasida sizlar bilan birga Prezident Olimpiadasi o‘yinlariga start bermoqdamiz. Mamlakatimizda birinchi marta o‘tkazilayotgan, butun yurtimiz yoshlarini olimpiya harakatining ergu g‘oyalari asosida birlashtirayotgan ushbu sport bayrami barchamizga muborak bo‘lsin! — dedi davlatimiz rahbari.

Musobaqaning tuman va viloyat bosqichlarida umumta’lim maktablaridagi sport to‘g‘achlari, xususiy sport klublari va 310 ta sport maktabidan 100 mingdan ortiq yoshlar ishtirok etdi. Eng yuqori natijaga erishgan 3000 dan ziyod o‘g‘il-qiz Prezident Olimpiadasiga keldi. Bu vatanimiz sharafini xalqaro musobaqalarda himoya qiladigan mahoratlil sportchilarimiz zaxirasiga yana yuzlab iste’dod egalari kelib qo‘shilayotganidan dalolat.

Bundan buyon har yili o‘tkaziladigan Prezident Olimpiadasi yangi iqtidorlarni kashf qilib, samarali seleksiya tizimiga aylanadi. Kelgusi yildan boshlab, suv sporti, velosport, triatlon, qilichbozlik va jamoaviy o‘yinlar bo‘yicha ham musobaqalar o‘tkazilib, sport turlari soni 20 taga yetkaziladi.

Davlatimiz rahbari Prezident Olimpiadasi musobaqalarining tantanali ochilish marosimida nutq so‘zlayotgan pallada dunyo uzra bir xushxabar tarqaldi: “O‘zbek o‘g‘loni Javohir Sindorov shaxmat bo‘yicha jahon kubogi g‘olibi bo‘ldi!”.

— Ushbu buyuk g‘alaba bilan chin dildan tabriklayman. Sen o‘zbek o‘g‘loni, yangi O‘zbekiston farzandi nimalarga qodir ekanini dunyoga ko‘rsata olding. Sende farzandim borligi bilan faxrlandim, xalqimiz farxlandi. Ilohim, g‘oliblik yo‘li bardavom bo‘lsin, — dedi davlatimiz rahbari marosimdan so‘ng telefon orqali chempionni tabriklab.

O‘z navbatida, Javohir Sindorov bu g‘alaba kelgusidagi yanada ulkan zafarlarning boshlanishi ekaniga umid bildirib, jahon shaxmat tojini ham Vatanimizga olib kelamiz deb va’da berdi. Yaratilgan imkoniyat va ko‘rsatilayotgan e’tibor uchun Prezidentimizga minnatdorlik izhor etdi.

Oy mobaynida mamlakatimiz yetakchisi huzurida qator taqdimodlar ham bo‘lib o‘tdi. Xususan, millat genofondini giyohvandlikdan himoya qilish, kibernetoyatlarga qarshi samarali kurashish hamda prokuror nazoratini raqamlashtirish, orfan kasalliklariga chaligan bolalarga tibbiy yordamni yaxshilash, farmatsevtika sohasidagi islohotlarning ijrosi hamda yangi loyihalar, temir yo‘l sohasida amalga oshirilayotgan ishlar va kelgusi yillar uchun rejalar, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi ishlar samaradorligini oshirish va boshqa taqdimotlarda bajarilgan ishlar tahlil qilinib, kelgusidagi vazifalar belgilab berildi.

Davlatimiz rahbari 19-noyabr kuni “Ekologiya va turizm sohaslarida aholi talablariga tezkor javob bera oladigan boshqaruv tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonni imzoladi. Farmonga muvofiq, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi sifatida qayta tashkil etildi. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining asosiy vazifalaridan tashqari Ekologiya qo‘mitasi “Chiqindidan xoli hudud”, “Toza havo”, “Yashil makon”, “Eko madaniyat” va “Bio meros” umummilliy loyihalarini amalga oshirish uchun mas’ul hisoblanishi belgilandi.

Shuningdek, Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ham shu sanada e’lon qilindi. Unda ko‘plab muhim vazifa va chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutildi.

6

Prezidentimiz raisligida 19-noyabr kuni kambag‘allikni qisqartirish hamda aholi bandligini ta’minlash borasidagi ishlar yuzasidan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Ta’kidlanganidek, o‘tgan davrda bu yo‘nalishdagi ishlarni quyida to‘g‘ri tashkil qilish, mahallama-mahalla yurib, yangi tashabbuslarni topib, odamlar farovonligiga mas’ul bo‘lgan viloyat, tuman hokimlari va ular xodimlarining moddiy-texnik imkoniyatlari tubdan yaxshilandi. Joriy yil boshidan ishsizlik 4,9 foizga tushdi (o‘tgan yili 5,5 foiz bo‘lgan). Ayniqsa, Buxoro, Kogon, Navoiy, Zarafshon, G‘ozg‘on, Samarqand, Shirin shaharlarida ishsizlik 4 foizdan pasayib, ilk bor “tabiiy ishsizlik” darajasiga yaqinlashdi.

Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayoni bilan tanishish hamda kelgusidagi vazifalarni faollar ishtirokida belgilab olish uchun Samarqand viloyatiga tashrifini davlatimiz rahbari 25-noyabr kuni taomilga ko‘ra, Imom Buxoriy maqbarasini ziyorat qilish bilan boshladi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan mazkur majmua buyuk muhaddis bobomizning islom olamida tungan yuksak mavjei, ulkan salohiyatiga

munosib tarzda qaytadan bunyod etildi. Umumiy maydoni 45 gektarni tashkil etadigan hududda ulkan maqbara, 10 ming kishilik masjid va ma’muriyat binosi, muzey, kirish va chiqish avyonlari qurildi. To‘rt burchagidagi 75 metrli minoralar ziyoratgohga mahobat bag‘ishlagan.

Shu kuni Xalq deputatlari Samarqand viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasi bo‘lib o‘tdi. Unda Prezidentimiz ishtirok etdi. Samarqand so‘nggi yillarda siyosiy, iqtisodiy, turizm va biznes markaziga, ko‘plab yirik xalqaro tadbirlar, forum va anjumanlar uchun muloqot maydoniga aylangan qayd etildi.

Respublika tumanlari ichida aholisi eng ko‘p Urgutda 600 mingdan ortiq odam istiqomat qilyapti. Tuman uzoq yillardan buyon viloyat qishloq xo‘jaligida yetakchi. Adir va toshloq yerdagi Urgut erkin iqtisodiy zonasi tashkil qilingan, 860 million dollarlik 74 ta loyiha ishga tushirilgani natijasida tuman sanoatlashgan hududga aylandi.

Urgutda yana bir tarixiy voqea yuz berdi — 55 kilometrli temir yo‘l liniyasi ishga tushirildi. Ushbu tarmoqni elektrlashtirish ishlari kelasi yili to‘liq yakuniga yetkaziladi. Bu, avvalo, aholiga yanada qulay sharoit yaratish bilan birga sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatishda yangi imkoniyatlar eshigini ochib beradi.

Hududda aholini uy-joy bilan ta’minlash, kanalizatsiya, ichimlik suv, maktab, bog‘cha, shifoxona, biznes infratuzilmasi bilan bog‘liq masalalar yechimini anchadan buyon kutayotgani ko‘rsatib o‘tildi. Shuning uchun Prezidentimiz Urgut markaziga “Yangi O‘zbekiston” qiyofasini olib kirib, yurtimizdagi eng zamonaviy va ko‘rkam shaharlardan biriga aylantirish bo‘yicha alohida qarorni imzoladi.

Tumanning Quyi Kamangaron mahallasidagi “Yangi O‘zbekiston” massiviga tutash hududdan 90 gektar qo‘shimcha joy ajratilib, zamonaviy urbanistika asosida 100 ming kishiga mo‘ljallangan ekoshahar barpo etilishi e’lon qilindi.

Davlatimiz rahbari Urgut misolida imkoniyatlarni tahlil qilib, vazirlar va hokimlar oldiga keyingi yil uchun ayni vazifalarni qo‘ydi.

Sessiyada tashkiliy masala ham ko‘rib chiqildi. Prezidentimiz Samarqand viloyati hokimi lavozimiga hokim vazifasini bajarib kelayotgan Adiz Boboyev nomzodini tavsiya etdi. Viloyat faollarining nomzod haqidagi fikrlari tinglangach, viloyat hokimini tayinlash masalasi ovozga qo‘yildi. Ovoz berish natijalariga ko‘ra, Adiz Boboyev viloyat hokimi etib tasdiqlandi.

Prezidentimiz yangi hokimga ish o‘rni yaratish, kambag‘allikni qisqartirish, investitsiya va eksportni ko‘paytirish, tannarxni kamaytirish hamda energiya tejamlorlikni oshirish bo‘yicha Samarqandni namunal hududga aylantirishi shartligi borasida ko‘rsatma va topshiriqlar berdi.

7

Oy ikki muhim xalqaro tadbir bilan nihoyalandi. Prezidentimiz 28-noyabr kuni dastlab poxtatimizdagi Xalqaro kongress markazida byurokrtiyani bartaraf etish masalalariga bag‘ishlangan xalqaro forumning tantanali ochilish marosimida ishtirok etdi va nutq so‘zladi. Unda mamlakatimizda aholi va biznes uchun byurokrtiyaga, ovoragarchilik va boshqa ma’muriy to‘siqlarni bartaraf etishga ustuvor ahamiyat qaratilayotgani, davlat xizmatlari ko‘rsatish milliy tizimini tubdan isloh qilish va raqamlashtirish, davlat organlari faoliyatini maqbullashtirish, aholi bilan davlat idoralari o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqot o‘rnatish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilayotgani ta’kidlandi.

Davlatimiz rahbari bugun byurokrtiyani kamaytirish bo‘yicha alohida dastur tasdiqlanganini ma’lum qildi. Ushbu hujjat, eng avvalo, davlat va aholi, davlat va biznes hamda davlat tuzilmasining ichki munosabatlarda byurokrtiyani bartaraf etish, har tomonlama qulay davlat xizmatlari ekotizimini yaratishni nazarda tutadi.

— Pirovard maqsadimiz — 2030-yilga qadar O‘zbekistomni o‘rtiqcha byurokrtiyadan xoli bo‘lgan hududga aylantirishdan iboratdir, — dedi Prezidentimiz.

So‘ngra mamlakatimiz yetakchisi Xalqaro kongress markazida sun’iy intellekt bo‘yicha xalqaro forumning tantanali ochilish marosimida ham ishtirok etdi. “Bugun biz Birlashgan Arab Amirliklari bilan hamkorlikda “Bir million dasturchi” loyihasinging uzviy davomi sifatida 5 million sun’iy intellekt yetakchilari” loyihasi ga start beramiz. Bu oddiy dastur emas, balki yoshlarimiz uchun yangi imkoniyatlar olamidir”, dedi davlatimiz rahbari.

Loyiha doirasida 2030-yilga qadar 4 million 750 ming maktab o‘quvchilari va talabalar, 150 ming nafar o‘qituvchilar hamda 100 ming nafar davlat xizmatdoshlari o‘qitish ko‘zda tutilgan.

Qisqasi, kuzning so‘nggi oyi — noyabr mamlakatimiz hayotida unutilmas, tarixiy voqealarga boy bo‘ldi va yana bir marta isbot talab etilmaydigan xulosalarni taqdim qildi. Dunyo hamjamiyati davlatimiz rahbari namoyon qilgan siyosiy iroda va qat’iy pozitsiya zamirida xalqparvarlik, yurt tinchligi, barqarorligi, taraqqiyoti kabi dolzarb maqsadlar muajassam ekanini ko‘rdi. Shuningdek, ishonchga yo‘g‘rilgan barcha sa’y-harakatlar inson manfaatlari va uning baxtli, farovon yashashiga yo‘natilganiga guvoh bo‘ldi.

AGROTEKNOLOGIYALAR YORDAMIDA HOSILDORLIKNI OSHIRISH

Davlatimiz rahbari joriy yil 17-noyabr kuni qishloq xo‘jaligida yangi tashabbuslar, jumladan, paxtachilikda samaradorlikni oshirish va ilg‘or texnologiyalar asosida sohani rivojlantirish bo‘yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi. Yig‘ilishda paxtachilikdagi hosildorlikni oshirish masalalari atroflicha ko‘rib chiqildi. Jumladan, past hosil olayotgan fermerlar bilan manzilli ishlash, ilg‘or agroteknologiyalar va oziqlantirish amaliyotini to‘g‘ri qo‘llash, agronomlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish choralari belgilab olindi.



G‘iyosjon RAHIMOV,
Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot
instituti bosh ilmiy xodimi, qishloq xo‘jaligi
fanlari doktori, professor

Prezidentimizning 2024-yil 13-fevraldagi “Qishloq xo‘jaligi yerlari degradatsiyasiga qarshi kurashish, tuproqning gumus miqdori va unumdorligini oshirishni qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-fevraldagi “Qishloq xo‘jaligi yerlari unumdorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlarida mamlakatimizda unumdorligi past, sho‘rlangan yerlarda tuproq unumdorligi, gumus miqdori va ekinlar hosildorligini oshirishda ilmiy asoslangan ilg‘or texnologiyalar va tajribalardan foydalanish, suv va resurs tejamkor texnologiyalarni joriy qilish yuzasidan qishloq va suv xo‘jaligi vazirliklari, O‘zFA va uning bo‘limlari, tegishli ilmiy-tadqiqot institutlari, olimlar, viloyat va tuman hokimliklari, qishloq xo‘jaligida faoliyat yuritayotgan barcha rahbar va mutaxassislar oldida turgan vazifalar belgilab berilgan.

Ayni paytda davlatimiz rahbari paxtadan gektariga 50, g‘alladan 100 sentner hosil olish topshirig‘ini bergan edi. Bunga faqat tuproqni gumusli, fosforli, organik va bioorganik o‘g‘itlar bilan boyitish orqali sog‘lomlashtirib, unumdorligini oshirishni ta‘minlagan holda erishish mumkin. Agar ushbu chora-tadbirlar ko‘rilmasa, tuproq unumdorligi pasayib, sho‘rlanish darajasi kuchayadi va suv sarfining uch-to‘rt barobar ortishiga sabab bo‘ladi. Oqibatda berilgan mineral o‘g‘itlar tuproqdan yer ostiga yuvilib ketadi.

Hozirgacha paxta ekiladigan unumdorligi past yerlarning har gektariga 20-30 tonnadan ortiq mol go‘ngini solish tavsiya qilingan. Lekin buning imkoni yo‘q. Chunki chorvaning ahvoli ma‘lum. Shu sabab bugun yerlarning unumdorligi juda past bo‘lib, ayrim joylarda kuchli va o‘rta darajadagi sho‘rlanish holatlari aniqlangan. Oxirgi 5-10 yilda umuman organik o‘g‘it berilmay kelayotgan yerlar ham mavjud.

O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Umumiy va noorganik kimyo instituti, Mikrobiologiya instituti, O‘zFAning Navoiy filiali, “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti, O‘zbekiston Milliy universiteti, Buxoro davlat universiteti kabi qator ilmiy-tadqiqot institutlari hamda oliy ta‘lim muassasalari olimlari tomonidan organik va bioorganik o‘g‘itlar ishlab chiqilgan hamda keng joriy qilishga tavsiya etilgan.

BIOGUMUS — ORGANIK O‘G‘IT

Biogumus organik o‘g‘iti tuproq unumdorligini, gumus miqdorini oshiradi, sho‘rlanishni kamaytiradi, yerlarning meliorativ holatini yaxshilaydi, suv va namlikni saqlab, yillik sug‘orish hamda mineral o‘g‘itlar sarfi me‘yori kamaytiradi. Hosildorlikni oshiradi va 15-20 kunda pishib yetilishini ta‘minlaydi. Ushbu organik o‘g‘itdan foydalanib yetishtirilgan mahsulotlar mazali va xaridorgir bo‘ladi. Biogumus tarkibi eng yaxshi tabiiy o‘g‘it hisoblangan hayvonlar go‘nginikiga nisbatan 100 baravar samarali bo‘ladi. Masalan, Uzun tumanida biogumus berilgan yerning har gektaridan 90 sentner g‘alla, 55 sentner paxta hosili olingan. Paxtaga ushbu ozuqa 10 tonnagacha qo‘llanganda har gektardan qo‘shimcha 2-3 sentner hosil olingan. Hozirgi global iqlim o‘zgarishlari sharoitida unumdorligi past yerlarda ekiladigan ekin turini hisobga olgan holda, biogumusi 4, 6, 8 tonnadan har gektar yerga 3 yilda bir marta berish tavsiya qilingan.

Biogumus tayyorlash uchun hech qanday maxsus uskuna, apparat, bino-inshoot yoki preparat talab etilmaydi. Har bir xo‘jalik ehtiyojiga qarab biogumus yetishtirishi mumkin. Uni markazlashgan holda ham, sanoat uskunalar yordamida ham tayyorlasa bo‘ladi. Bu ishni qilish uchun olim va mutaxassislar tomonidan yetarli qo‘llanmalar, tavsiyalar ishlab chiqilgan va respublikamizda joriy etilmoqda.

XLORELLA — HAM OZUQA, HAM NAMLIKNI SAQLOVCHI VOSITA

Xlorella bioorganik o‘g‘iti qishloq xo‘jaligida unumdorligi past, gumus miqdori kam va sho‘rlangan yerlarda qo‘llanganda tuproqning ustki qatlamida yashil massa va foydali mikroorganizmlar hosil bo‘ladi. Ular esa tuproq unumdorligi oshishiga yordam beradi. Tarkibi yaxshilaniib, namlik muntazam optimal darajada saqlanib, tuproqdagi organik moddalar mineral moddalarga parchalanadi, o‘simliklarning tuproqdan ozuqa olish jarayonini yaxshilash uchun eng qulay va zarur shart-sharoit yaratadi. Buxoro davlat universiteti olim va mutaxassislari tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, xlorella ko‘p miqdorda har xil ferment, aminokislota, vitamin va boshqa biologik faol moddalar ishlab chiqaradi hamda o‘simliklarning tuproqdan ozuqa olish jarayonini yaxshilash uchun eng qulay va zarur shart-sharoit vujudga keltiradi. Tuproqda namlikni mavsum davomida saqlab, sug‘orish me‘yori, ayniqsa, paxtachilikda 1-3 marta kamaytirish imkonini beradi.

Xlorella — yashil suv o‘ti suspenziyasida ivitilib ekilgan chigit 4-6 kun oldin unib chiqqan. Ko‘chatlar chiqishi 98 foizgacha yetishi, hosil 7-10 kun oldin pishib, hosildorlik 25-30 foiz oshishi kuzatilgan. Tuproqda namlik yil davomida optimal darajada bo‘lgan.

Yashil suv o‘tini suspenziya hamda quruq holatda har bir viloyat va tumanlarda ishlab chiqarish mumkin. Buning uchun alohida uskuna, preparat va katta xarajat talab etilmaydi. Uni ishlab chiqarish uchun xlorella suspenziyasi sig‘adigan 50 kub metrli qurilmani tiklab, bir mavsumda 40-80 tonna quruq xlorella, 170-250 tonna suspenziya olish mumkin.

Xlorella xomashyosi daryo yoqasi, ko‘l bo‘ylarida uchraydi. Ularni olish va mutaxassislarimiz ishlab chiqqan qo‘llanmalar asosida qisqa vaqtda ko‘paytirib, suspenziya holatidagi xlorellani paxta, g‘alla va sabzavot ekinlariga mavsum davomida pirkash imkoniyati mavjud. Quruq massa holatidagi xlorellani kuzgi va bahorgi haydon vaqtida barcha turdagi ekinlarga, ayniqsa, “Yashil makon” umummilliy dasturi bo‘yicha ekilayotgan daraxtlar tagiga



GIDROGEL SUVda yuqori bo‘kuvchan, sintetik polimer bo‘lib, tuproq tarkibida KO‘P MIQDORDAGI NAMLIKNI UZOQ VAQT SAQLASH IMKONINI BERADI.

O‘g‘itlarni xo‘jaliklarning o‘zida tayyorlash uchun hech qanday uskuna talab qilinmaydi. Faqat tavsiyaga ko‘ra, yerni chuqur kovlab, unga qisman mol go‘ngi, chiqindi, qisman betonit va fosforit aralashtirib, 3-4 oy saqlanadi. Betonit va fosforit xomashyosi kimyo zavodlaridan olinadi. Hozir fosforli o‘g‘itlar hajmini ko‘paytirish va bir vaqtning o‘zida tuproqlarda gumus miqdori hamda unumdorligini oshirishning iqtisodiy va tejamkor yo‘llaridan biri — nokonditsion fosfogips, betonit va chorvachilik, parrandachilik chiqindilari asosida fosfor-gumusli organik o‘g‘itlar olish hamda ularni qo‘llashdir.

Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va agroteknologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti tajriba dala maydonlarida o‘tkazilgan agrokimyoviy sinov natijalarida ushbu o‘g‘itlar qo‘llanganda tuproq nafaqat fosfor, balki azot bilan ham ozuqalanishi uchun maqbul sharoit yaratilishi kuzatilgan.

Tajriba o‘tkazilgan yillarda nazoratga nisbatan har gektardan 4 sentnerdan qo‘shimcha hosil olingan. Fosfor-gumusli organik o‘g‘it ishlatilgan maydonlarda tuproq tarkibi yaxshilanadi va unumdorligi oshadi. Bu o‘g‘itlarni sho‘rlangan maydonlarda ham qo‘llash foydali.

Agar xo‘jaliklar ushbu organik o‘g‘itni tayyorlasa, tonnasi 3,5 million so‘mga tushadi. Bu har holda bir tonna ammosini 9,5 million so‘mga sotib olishdan ancha yaxshi. Ya‘ni 60-70 foiz arzon bo‘ladi.

berish mumkin. Xlorelladan ham ozuqa, ham namlikni saqlash vositasi sifatida foydalanib, sho‘rlanishni kamaytirish mumkin.

KAM SUV, YUQORI HOSIL

Gidrogel suvda yuqori bo‘kuvchan, sintetik polimer bo‘lib, tuproq tarkibida ko‘p miqdordagi namlikni uzoq vaqt saqlash imkonini beradi. U tuproqda yog‘ingarchilik asosida yoki sug‘orish yo‘li bilan kirgan suvni o‘simliklar ildiziga bemaol o‘tadigan holatda saqlaydi. Katta miqdordagi suvni yutib, zarur bo‘lganda yutilgan suvni tashqi muhitga chiqarish xususiyatiga ega. Yomg‘ir suvida og‘irligidan 200-300 barobar, aksariyat tuproqlarda tarkibidagi turli tuzlar miqdoriga qarab, 200-250 barobargacha suvni o‘zida saqlaydi. Hidrogel selluloza va kxramal asosida ishlab chiqariladi. Undan mamlakatimizdagi barcha turdagi suv bilan ta‘minlangan hamda tuprog‘i va suvi turli darajada sho‘rlangan yerlarda paxta, g‘alla, sabzavot, poliz maydonlari va mevali bog‘larni ko‘kalamzorlashtirish uchun foydalanish mumkin. Hidrogel sarfi ekin turi, tuproq tarkibiga qarab hamda mahalliy iqlim sharoitidan kelib chiqib aniqlanadi.

Suvda bo‘kuvchi gidrogel moddasining qo‘llanishi natijasida bir gektar maydondan 2500 kub metr suv tejab qolinib, paxta hosildorligi gektariga 58 sentnerga yetgan. Bir gektar yerga solingan gidrogel miqdori 60 kilogrammi tashkil qilgan.



“**UNUMDORLIGI
PAST YERLARDA
ORGANIK, BIOORGANIK,
MINERAL O‘G‘ITLAR
BILAN TO‘G‘RI
OZIQLANTIRISH,
NAMLIKNI SAQLASH,
SHO‘RLANISHNI
KAMAYTIRISH,
MINERALLASHGAN
DRENAJ VA YER OSTI
SUVLARINI TUZLARDAN
TOZALAB QAYTA
FOYDALANISH YUQORI
HOSIL VA KATTA
DAROMAD KAFOLATI.**

Hozir gidrogel mahsuloti yurtimizda mavjud bo‘lgan mahalliy xomashyolar asosida tayyorlanib, chetdan keltirilgan shu turdagi mahsulotga nisbatan 8 barobar arzon, xususiyati esa farq qilmaydi.

TUZ VA ZARARLI BIRIKMALARDAN TOZALAYDI

Sanoat va qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan suvlar tozalanmasdan bevosita kanallarga qo‘yib yuborilmoqda. Natijada ekinlarni sug‘orish uchun foydalaniladigan suvlar ma‘lum darajada sho‘rlanib, har xil toksikologik zararli birikmalar ko‘payib, ekinlarni sug‘organda urug‘larning unib chiqishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bunday suvlar bilan ekinlar sug‘orilganda ko‘chatlarning unib chiqishi 20-30 foiz kamaygan. Bu esa hosildorlikning pasayishiga sabab bo‘ladi.

O‘zFA Mikrobiologiya instituti olimlari oqova suvni tozalashda Chlorella vulgaus suv o‘tidan foydalanib, suv tarkibidagi organik moddalarni utilitatsiya qilish va tozalash imkonligini isbotladi. Olingan natijalarga asosanib, suv tozalash jarayonida hosil bo‘lgan

Chexiya, Italiya, AQSH, Misr, Ukraina, Rossiya, Yaponiya, Xitoy kabi davlatlarda qishloq xo‘jaligida samarali qo‘llanib, tuproq unumdorligini saqlash, mahsulot sifatini yaxshilash bilan birga ekinlar hosildorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda mahalliy mineral xomashyo resurslaridan foydalanish hozir eng dolzarb vazifalardan. Shu bois, respublikamiz konlaridagi bentonit gili tarkibi yaroqli elementlarga boy bo‘lib, undan foydalanish mumkin.

Navoiy tajriba stansiyasi dalalarida “C-01” navli paxta chigitini bentonit gili kukuni bilan qobiqlab ekish va bargidan bentonit hamda mineral o‘g‘iti suspenziya bilan oziqlantirish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazildi.

Har bir gektar paxta dalasiga mavsum davomida 12-15 kilogramm bentonit kukuni sarflandi. Ya‘ni har bir gektarga qo‘shimcha 15-20 ming so‘m xarajat qilindi. Hosildorlik nazoratda gektariga 38 sentnerni tashkil qilgan bo‘lsa, chigit qobiqlab ekilgan bentonitli karbamid suspenziyasi berilgan tajriba variantida 45,2 sentnerga yetdi.

O‘zFA Navoiy bo‘limi olimlarining dastlabki hisob-kitobiga ko‘ra, ushbu texnologiya respublikamizning paxta ekiladigan 100 ming

kimyoviy tarkibi va sug‘oriladigan massivlarning tuproq-meliorativ sharoiti hisobga olinmayapti. Bu esa aynan sug‘orilayotgan ushbu yer maydonlari holatining yomonlashuviga olib kelmoqda. Tuproq degradatsiyasi va sho‘rlanishi kuchayib, unumdorlik pasaymoqda.

Kollektor — zovur va yer osti suvidan g‘o‘zani sug‘orishda foydalaniladigan hamma holatda ularning tarkibini to‘liq kimyoviy tahlil qilish zarur. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, tuproqqa va ekinga zarar yetkazmay, kollektor, zovur va yer osti suvi bilan sug‘orishda og‘ir mexanik tarkibli tuproqlarda minerallashganlik 2, yengil tuproqda esa 3 g/l gacha bo‘lganda foydalanish mumkinligi hamda tuproqning sho‘rlanish va sho‘rtoblanishi xavfini keltirib chiqarmasligi kuzatildi.

Daryo suvi yetib borishi qiyin bo‘lgan hududlarda minerallashgani o‘rtacha 3-5 g/l bo‘lgan zovur suvini Lemna miror suv o‘simligi yordamida biologik tozalab, paxtaning “Buxoro-6” navini sug‘orish natijasida hosildorlik 32,3 sentnerni, rentabellik darajasi 16 foizni tashkil qildi.

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti olimlari tomonidan minerallashgani 3-5 g/l bo‘lgan zovur suvida laboratoriya sharoitida Lemna miror suv



“**Daryo suvi yetib borishi qiyin bo‘lgan
hududlarda minerallashgani o‘rtacha 3-5 g/l
bo‘lgan zovur suvini LEMNA MIROR SUV
O‘SIMLIGI yordamida biologik tozalaydi.**

xlorella suspenziyasidan paxtachilikda chigitni ivitishda foydalanish mumkin.

gektar maydonida qo‘llansa, 135 milliard so‘m qo‘shimcha daromad olish mumkin.

135 MILLIARD SO‘M QO‘SHIMCHA DAROMAD

Dunyoda bentonitli va bentonitga o‘xshash gillardan xalq xo‘jaligining turli sohalorida, shuningdek, qishloq xo‘jaligida ham keng foydalanilmoqda. Qator mamlakatlar, xususan,

CHORASIZLIKDA CHORA

Hozirgi suv taqchilligi sharoitida qator xo‘jaliklar kollektor, zovur va yer osti suvlaridan g‘o‘za hamda boshqa ekinlarni sug‘orishda keng foydalanmoqda. Ko‘pincha bunday holatda kollektor va zovur suvining minerallashgani,

o‘simligi o‘stirilganda eng yaxshi natija olingan. Undagi xlor miqdori 28 foizgacha, quruq qoldiq miqdori esa 18 foizgacha kamayishi kuzatilgan. Zovur suvi bilan sug‘orilgandagi variantga nisbatan 4,2 sentner qo‘shimcha hosil olingan.

Tuproq unumdorligi hamda undagi gumus miqdorini oshirish, ekinlar hosildorligi va sifatini yaxshilash, ayniqsa, suv resurslaridan oqilona foydalanish masalalarini hal etishda ilm-fan hamda amaliyot uyg‘unligining ahamiyati katta. Bu sohaning zamonaviy asosda rivojlanishini ta‘minlaydi. Suv resurslarini tejovchi ilg‘or innovatsion texnologiyalarni yanada keng qo‘llash uchun mustahkam zamin yaratadi.

Qishloq xo‘jaligida bajariladigan ishlarga bilim asosida yondashish, ayniqsa, tuproq unumdorligini oshirish har bir fermer uchun muhim masala. Zero, qishloq xo‘jaligida bugun bilim va innovatsion g‘oyalarni qo‘llagan holdagina yuqori hosil va daromad olish mumkin.

KONSTITUTSIYA — DUNYOVIY AVLAT KAFOLATI

HAR BIRIMIZ ORZU QILISHGA VA UNI RO‘YOBGA CHIQARISHGA HAQLIMIZ

2007-yili Farg‘ona shahrida dunyoga kelganman. O‘tam huquqshunos, onam hamshira. Aynan halollik, mehnat va bilimga intilishni qadrlaydigan oddiy oilada o‘‘sib, ulg‘aydim. Otamning o‘‘rnagi va maktabdagi dastlabki yutuqlarim keyingi yo‘‘limni belgilab berdi: o‘‘zimni huquq, adolat va davlat xizmatiga bag‘‘ishlash niyatida ekanimni angladim.

Bugun hayotimning yangi bosqichi boshlandi. Bu Konstitutsiyamizda qat‘iy belgilab qo‘yilgan ta‘lim olish, teng imkoniyatlar va adolat huquqidir. Ta‘lim olish huquqi men uchun shaxsiy poydevor, imkoniyatlar dunyosini ochib beruvchi ulkan yo‘l. “El-yurt umidi” jamg‘armasining ochiq



**Oyatulla ANVAROV,
“El-yurt umidi”
jamg‘armasi stipendianti**

tanlovda ishtirok etganimda teng huquqlilik, shaffoflik va halol raqobat tamoyillari amalda qanday ishlashini ko‘rdim. “El-yurt umidi”

jamg‘armasi stipendianti bo‘lish men uchun katta shara. Bundan-da kattarog‘i Vatan, oila va davlat yaratayotgan yangi imkoniyatlar tizimi oldidagi mas‘uliyatdir.

Ayni paytda Buyuk Britaniyaning Birmingem universitetida ta‘lim olayman. Bu yerda nazariya amaliyot bilan uyg‘unlashadi, bilim esa davlat boshqaruvi rahbarlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Xalqaro huquq, konstitutsiyaviy huquq, davlat boshqaruvi, huquqiy tahlil va qaror qabul qilish usullarini chuqur o‘rganyapman. Chunki ishonchim komil: kuchli huquqiy tizim kuchli davlatning asosini tashkil etadi.

Qonun ustuvorligini mustahkamlaydigan, davlat boshqaruvinii takomillashtiruvchi, adolati, ochiq va zamonaviy davlat boshqaruvi tizimini yaratadigan islohotlarda munosib ishtirokchi bo‘lishni istayman. Mamlakatimizga yangi avlod — halol, bilimli, prinsipial huquqshunoslari kerak. Men ham ulardan biri bo‘laman!

QONUN HIMOYASIDAGI TIZIMNING ERTASI YORUG‘

**Dinara YULDASHEVA,
“V STRANE ZNANIY1-FERGANA”
nodavlat MTT rahbari**



Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda inson qadri har narsadan ustunligiga birlamchi e‘tibor qaratilgan. Albatta, shaxsning shakllanishi, jamiyatda munosib o‘rin topishini ta‘lim tizimisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bosh qonunimizning 50-, 51-, 52-moddalarida har kim bilim olish huquqiga ega ekanini kafolatlangan. Shuningdek, davlat uzluksiz ta‘lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta‘lim tashkilotlari rivojlanishini ta‘minlashi, maktabgacha ta‘lim-tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishi belgilab qo‘yilgan. Maktabgacha ta‘lim va tarbiya, umumiy o‘rta ta‘lim davlat nazoratida ekanini qonun bilan mustahkamlangan.

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, mamlakatimiz aholisining 3,2 millioni 3-7 yoshli bolalardan iborat. 2017-yilda bog‘chalarga qamrov darajasi

30 foizga ham yetmagan, bugun ushbu raqam ikki barobardan ortib ketganini hamma ko‘rib-bilib turibdi.

Qamrovning qariyb 78 foizga yaqinlashib qolganida nodavlat sektorning o‘rni kattaligini alohida ta‘kidlash joiz. Aslida ham davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari (MTT) bilangina qamrovni bu darajada oshirib bo‘lmaydi. Bu esa biz, tadbirkorlarga oilaviy, xususiy, davlat-xususiy sherikligi (DXSH) asosidagi maktabgacha ta‘lim tashkilotlari faoliyatini yo‘lga qo‘yishga keng yo‘l ochdi. Avval nodavlat MTT ochmoqchi bo‘lgan tadbirkor bir talay hujjati tegishli tashkilotlarga olib borishi, oylab kutishi, qisqacha aytganda, uzoq vaqt sarson bo‘lar edi. Qayta-qayta pul sarflanar, vaqtdan yutqazilardi. Hozir esa hammasi qulay. Barchasi

avtomatlashtirilgan, maxsus platformalar bor. O‘tirgan joyingizda yuridik shaxs nomidan ariza bersangiz kifoya. Kerakli hujjatlarni elektron taqdim eta olsangiz, mutasaddilarning o‘zi sizga bog‘lanib, “Qachon boraylik, qachon vaqtigingiz bo‘ladi?” deb so‘raydi. Onlayn tarzda har bir bosqichni, umumiy jarayonni kuzatib turishingiz mumkin. Yana bir muhim jihat shuki, avval litsenziya 5 yilga berilgan bo‘lsa, hozir umrbodga olasiz. Mana, insonning qadri, tadbirkorning hurmati.

DXSHning birinchilardan bo‘lib maktabgacha ta‘limda qo‘llanishi davlat hamda nodavlat tashkilotlar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirdi. Subsidiyalar, imtiyozli kreditlar ajratilishi ham tadbirkorlarda MTT tashkil etishga qiziqish uyg‘otdi. Natijada eng chekka qishloqlarda ham zamonaviy nodavlat bog‘chalar qad rostladi. Qancha ko‘p yangi bog‘chalar ochilmasin, o‘rinlar tez to‘layotir. Jumladan, bizning oilaviy nodavlat bog‘chamizda ham 50 o‘g‘il-qiz tarbiyalanayapti. 2023-yilda faoliyat boshlagan edik, 10 ga yaqin ayolni ish bilan ta‘minladik. Tarbiyachilar haqida gap ketganida, 1+5 tizimi o‘z vaqtida joriy etilganini ta‘kidlash joiz. Chunki eng tajribali yordamchi tarbiyachimiz ham universitetning maxsus sirtqi bo‘limida o‘qidi. Bog‘chalarda shu kabi tajribali, ko‘p yillik staji bo‘lgan, ammo oliy ma‘lumoti yo‘q tarbiyachilar talaygina. Davlatga tegishli va xususiy bog‘cha tarbiyachilarini ishdan ajralmagan holda oliygo‘hlarida o‘qitish yo‘lga qo‘yilsa, yiliga qariyb 10 ming tarbiyachi oliy ma‘lumotli bo‘lar ekan. Shu ma‘noda, bu loyiha ham juda katta imkoniyat bo‘ldi.

Xususiy MTT ochish, faoliyatini to‘g‘ri olib borish ba‘zilar o‘ylaganidek oson daromad topish manbai emas. Ayniqsa, bolalar bilan ishlashning juda katta mas‘uliyati bor. Litsenziyada 3 yoshgacha bo‘lgan bolalarni ham qabul qilishimiz mumkinligi ko‘rsatilgani uchun ilk yoshli guruhni shakllantirganimiz. Bunda 3 yoshgacha bo‘lgan bolalar sonini 15 nafardan oshirmagan holda ularga 1 tarbiyachi va 2 enaga birlashtirilgan. Bu esa ishlaydigan ota-onalar uchun ayni muddao bo‘ldi.

Maktabgacha ta‘lim uzluksiz ta‘limning birlamchi, eng asosiy bo‘g‘inidir. Buning mohiyatini odamlar endi-endi tushunib yeta boshladi. Chunki davrning o‘zi shuni talab qilyapti. Bundan kelib chiqqan holda MTTlar faoliyatini yanada rivojlantirish, ularda xalqaro dasturlarni ham joriy etishga harakat qilinayapti. Har bir viloyatda “Yangi avlod” bog‘chalari tashkil qilinishi, tarbiyachilar ilg‘or pedagogik texnologiyalarni o‘rganishi bilan maktabgacha ta‘limga yana bir yangi qadam, yangi nafas olib kirilishi kutilyapti. Xususiy bog‘cha tarbiyachilari ham imkoniyatlardan foydalana olishi esa tizimda tenglik qaror topayotganining amaldagi ko‘rinishidir.

Fuqarolar davlat ta‘lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma‘lumot olishga haqli. Oliy ta‘lim tashkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik, o‘zini o‘zi boshqarish, tadqiqotlar o‘tkazish va o‘qitish erkinligi huquqiga ega.

(O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 51-moddasi)

ILM ERKINLIGIDAN MOSUVO JAMIYAT taraqqiyotdan ortda qoladi



**Dilshod RUSTAMOV,
filologiya fanlari doktori**

yoshlarning oliy ta‘limga ishonchini mustahkamlab, imkoniyatlar tengligini yanada ta‘minladi. Ushbu jarayonlar hududlardagi oliy ta‘lim muassasalarida ham o‘zining amaliy ifodasini topmoqda. Jumladan, Andijon davlat chet tillar institutiga 2024/2025-o‘quv yili uchun 192 abituriyent davlat granti asosida talabalikka qabul qilingan bo‘lsa, 2025/2026-o‘quv yilida bu ko‘rsatkich to‘liq va qisman davlat grantlari hisobidan 245 nafarga yetdi. Bu o‘tgan yilga nisbatan sezilarli o‘sish bo‘lib, davlatning chet tillar ta‘limiga, til kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratayotgan e‘tiborining hududiy darajadagi yorqin namunasidir. Bundan tashqari, institutga alohida imtiyoz asosida qabul qilingan talabalar soni ham ko‘rsatkichlar o‘zlashida muhim o‘rin tutadi. O‘tgan o‘quv yiliga nisbatan ushbu yo‘nalish bo‘yicha qabul qilinayotgan talabalar ulushi 10 foiz oshgani, ta‘limning inklyuziv va jittimoiy adolatga asoslangan yondashuvlarini amaliy jihatdan kuchaytirayotganining dalilidir. Bu natijalar nafaqat institutning o‘quv-tarbiyaviy ishlaridagi yuksalishni, balki Konstitutsiyamizda belgilangan teng ta‘lim huquqi tamoyillarining hududlarda ham izchil amalga oshayotganini ko‘rsatadi.

Konstitutsiyada mustahkamlangan akademik erkinlik tamoyili oliy ta‘lim tizimida sifat jihatdan yangi bosqichni yuzaga keltirdi. Bugun professor-o‘qituvchilar o‘quv dasturlarini xalqaro talabalariga mos ravishda mustaqil yangilash, ta‘lim jarayoniga interaktiv yondashuvlar, mediasavodxonlik texnologiyalari, fanlararo ta‘lim platformalarini tatbiq etish imkoniyatiga ega. CEFR, EQF, Bolonya talablari asosida o‘quv rejalari va dasturlarining qayta ko‘rib chiqilishi natijasida ta‘lim sifati sezilarli darajada oshdi. Respublikamizdagi 80 dan ortiq oliy ta‘lim muassasasi xalqaro akkreditatsiyadan o‘tish jarayonini boshlagan yoki yakunlagan. Bu jarayon zahirida aynan akademik erkinlikning konstitutsiyaviy kafolati mujassam.

Konstitutsiyamizning 51-moddasidagi eng dolzarb va strategik ahamiyatga ega tamoyillardan biri tadqiqotlar o‘tkazish erkinligining konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanganidir. Bugun mamlakatimiz ilmiy muhitida sodir bo‘layotgan tub o‘zgarishlar — aynan shu erkinlikning amaliy kuchi va davlat tomonidan ilimga berilayotgan yuksak e‘tiborning yorqin ifodasi. Bugungi taraqqiyot tajribasi AQSH, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Germaniya, Singapur, Kanada kabi mamlakatlar iqtisodiy yuksalishi asosida aynan tadqiqotlar erkinligi, ilm-fan va innovatsiyaga ochiq muhit, universitetlarning mustaqilligi yotishini ko‘rsatdi. O‘zbekiston ham bugun ana shu strategik yo‘ldan dadil bormoqda. Ilmiy daraja berish tizimining xalqaro standartlarga moslashuvi, doktorantura instituti takomillashuvi, ilmiy loyihalar soni keskin oshgani — bularning barchasi ilm-fanga ustuvor yo‘nalish sifatida qaralayotganini tasdiqlaydi.

Statistik ma‘lumotlarning o‘zi ham ilm-fanning kuchayib borayotganini yaqqol tasdiqlaydi. So‘nggi uch yilda xalqaro ilmiy loyihalar soni ikki barobardan ortdi. Birgina Erasmus+ dasturi doirasida 2020-2023-yillarda O‘zbekiston OTMlari 130 dan ortiq xalqaro hamkorlik loyihalarida ishtirok etgani xalqaro integratsiya sur‘ati naqadar shiddatli ekanini ko‘rsatadi. 2023-yilda respublikamiz olimlari tomonidan Scopus va Web of Science bazalarida 9000 dan ziyod maqola chop etildi. Bu 2016-yilga nisbatan 4 baravar ko‘p degani. Raqamlar ortida

O‘zbekistonning ilmiy salohiyatini oshirishga qaratilgan qat‘iy siyosat, universitetlarning global ilmiy hamjamiyatga chiqish yo‘lidagi uyg‘un sa‘y-harakatlar, eng muhimi, Konstitutsiyamizda belgilangan tadqiqotlar erkinligining amaliy natijasi turibdi. Bugun yosh doktorantlar uchun yaratib berilayotgan sharoitlar, ilmiy maktablar shakllanayotgani, yurtimiz olimlarining xalqaro konferensiyalardagi faolligi, xorijiy universitetlar bilan qo‘shma ilmiy dasturlarning ko‘payib borishi — bilim iqtisodiyoti sari dadil qadam tashlayotgan mamlakatning ajralmas belgilardir.

Rivojlangan davlatlarning taraqqiyot tarixiga nazar solsak, umumiy bitta qonuniyatni ko‘ramiz: ilm erkinligi bo‘lgan jamiyat doim oldinda bo‘ladi. Bugungi o‘zgarishlar faqat statistika yoki e‘lon qilingan strategiyalar emas, balki yurtimizning kelajagi uchun mustahkam poydevor qo‘yilayotganining ishonchli dalili. Chunki bilimga tayanmagan taraqqiyot barqaror emas; ilm-fan bilan uyg‘unlashmagan islohotlar uzoqqa bormaydi. 51-moddaning chuqur mohiyati ham aynan shu haqiqatni anglatadi: taraqqiyotning haqiqiy kaliti ilm-fanda, ilm-fanning haqiqiy kuchi esa erkinlikdadir. O‘qitish erkinligining kengayishi esa ta‘lim jarayonini tubdan yangilamoqda. Masofaviy ta‘lim, modul tizimi, mustaqil ta‘limning ulushi oshib bormoqda. Chet ellik o‘qituvchilarning dars jarayoniga jalb qilinishi, yangi avlod o‘quv qo‘llanmalarining yaratilishi, interaktiv kurslarning paydo bo‘lishi — bularning barchasi ta‘lim tizimining ochiqchiligi va zamonaviylashuvining xarajli ko‘rinishidir. Masalan, yil davomida xorijlik 30 professor-o‘qituvchining institutimizda faoliyat yuritgani, ularning Kanada, AQSH, Janubiy Koreya, Xitoy, Hindiston, Rossiya, Germaniya, Qozog‘iston va boshqa yetakchi davlatlarning nufuzli universitetlaridan kelgani o‘quv jarayonining mazmunini yanada boyitdi, ilmiy va metodik maktablar sifatini oshirdi. Xorijlik mutaxassslarning ishtiroki ta‘lim sifatiga yangi nafas bag‘ishlash bilan birga mahalliy pedagoglarning malaka oshirishi, o‘quv rejalari va metodikalarini xalqaro talabalariga moslashtirishga ham kuchli turtki bermoqda.

Bugungi O‘zbekiston — bilimga tayanadigan, ilm-fanga asoslangan, yoshlarning intellektual salohiyatiga ishonadigan davlat. Konstitutsiyaning 51-moddasi esa bu yo‘ldagi strategik, fundamental huquqi kafolatdir. Bu norma siyosiy tizimning ta‘limga berayotgan yuksak e‘tiboridan, ta‘limning jamiyat taraqqiyotidagi ustuvor o‘rni tan olinganidan dalolat.

O‘zbekiston yangi intellektual bosqich sari dadil qadam qo‘ymoqda. Bu yo‘lda ta‘lim tizimining har bir ishtirokchisi — ustoz, olim, talaba, tadqiqotchi — konstitutsiyaviy tamoyillarni amalda ro‘yobga chiqarishga mas‘ul. Zero, taraqqiyot poydevori — ta‘limdir. Ta‘lim poydevori esa Konstitutsiya.

BUGUNNING O‘QITUVCHISI FAQAT O‘QITADI

**Azima YUNUSOVA,
Qo‘shrabot tumanidagi
51-maktab o‘qituvchisi**

**Mamlakatimizdagi eng
qutlug‘ sanalardan
biri bo‘lgan 8-dekabr
har yili bolalar
bog‘chalaridan
tortib, ta‘limning
barcha bo‘g‘inida
keng nishonlanadi.**

Jumladan, maktablarda

ham bu sana munosabat bilan turli tadbirlar o‘tkaziladi. Konstitutsiyamizning fuqarolar haq-huquqlarini ta‘minlash, burch va mas‘uliyatini anglatishdagi mavqei va ahamiyati haqida aytiladi. Hech kimning ta‘lim olish huquqi cheklanmasligi, o‘qitish bilan bog‘liq ishlar davlat nazoratida ekanini yuzasidan tushuncha beriladi.



Chindan ham ta‘limga alohida e‘tibor biz, o‘qituvchilarning hayotdan rozi bo‘lib, kasbimizni sevib ishlashimizda muhim omil bo‘laypti. O‘zim xalqaro toifali ingliz tili fani o‘qituvchisiman. Buxoro viloyati Qorako‘l tumanidan ko‘chib kelib, Samarqand viloyatining Qo‘shrabot tumanidagi olish hududida — tuman markazidan 70 kilometr uzoqda joylashgan maktabda ingliz tilidan dars beryapman. Bunga Prezidentimizning 2021-yil 11-yanvardagi “O‘lis hududlardagi budget tashkilotlariga malakali mutaxassslarni jalb qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asos bo‘ldi. Mamlakat bo‘ylab men kabi o‘lis hududlarga borib ishlayotgan hamkasblarim ko‘plab topiladi. Kimdir Andijonning Surxondaryoga, yana kimdir Xorazmdan Farg‘onaga borib, istalgan o‘lis hududga qulay sharoitda, emini-erkin ishlayapti. Bu — avval bo‘lmagan tajriba. U tufayli bilim ko‘rsatkichi past bo‘lgan, qizil toifaga kiritilgan qanchadan-qancha maktabning sifat ko‘rsatkichi ortyapti. Nafaqat ilmiy jihatdan, balki moddiy-texnik baza jihatidan ham maktablarning sharoiti avvalgidan keskin yaxshilangan. Xususan, men ishlayotgan maktab ham o‘tgan yili qayta ta‘mirlanib, foydalanishga topshirildi. Zamonaviy jihozlar bilan ta‘minlandi.

Maktab ta‘limiga e‘tibor har qachongidan ziyod bo‘lgani bois bugun oddiy muallimlar ham 1000-2000 dollar qiymatida maosh olib ishlayapti. Yuqori maoshga ega 60 mingdan ziyod o‘qituvchi orasida men ham borligim uchun beqadrlar shukr qilaman.

Bugun o‘qituvchi o‘z nomi bilan faqat o‘qitadi, ta‘lim beradi. Obro‘si qonun bilan himoya qilinayapti. Shuningdek, soha tarixida bo‘lmagan imkoniyatlar berilmokda. Bilasizmi, mening bordan-bir orzum shaxsiy uy sotib olish edi. Farzandlarimiz bilan ijarada yashab juda qiyinalgandik. Endi davlatimiz o‘qituvchilarga yaratayotgan imtiyoz tufayli o‘z uyim bo‘ladi. 20 million so‘mdan ziyod maosh olayotgan o‘qituvchi bemalol ipoteka kreditini ham to‘laydi, oila budjetiga sarmoya ham kiritadi. Bu yangi O‘zbekistonimiz bizga tuhfa qilgan ulkan imkoniyatdir.

So‘nggi yillardagi keng qamrovli islohotlar aynan ushbu konstitutsiyaviy normalarning hayotiy kuchga egaligini yaqqol tasdiqlamoqda. Dastlab ta‘limning adolati va ochiq bo‘lishini ta‘minlash borasida qo‘lga kiritilgan natijalarni qayd etish lozim. 2016-yilga qadar mamlakatimizda 66 ta oliy ta‘lim muassasasi faoliyat yuritgan bo‘lsa, bugun ularning soni 200 dan oshdi, ya‘ni 3 baravar ko‘paydi. Davlat grantlari soni ham izchil oshib bormoqda. 2016-yilda 66 ming talaba davlat buyurtmasi asosida o‘qigan bo‘lsa, bugun bu ko‘rsatkich 100 mingdan o‘tdi. Abituriyentlarga 5 ta, keyinchalik 6 ta ta‘lim yo‘nalishini tanlash huquqi berilishi

Mulohaza

IDROK VA SHUUR BAHSI

SUN’IY INTELLEKT USTOZ O‘RNINI TO‘LA BOSA OLADIMI?

Bugungi globallashuv jarayonlari va shiddat bilan o‘zgarib borayotgan zamonaviy dunyo manzarasi insoniyat oldiga kutilmagan va jiddiy savollarni ko‘ndalang qo‘ymoqda. Inson tafakkuri mahsuli bo‘lmish texnologiyalar, xususan, sun’iy intellektning mislsiz rivojlanishi nafaqat ishlab chiqarish yoki iqtisodiyotni, balki jamiyatning eng nozik bo‘g‘ini sanalagan ta’lim tizimini ham tubdan o‘zgartirib yuborishga da’vo qilayotir.

Qamariddin KOMILOV, texnika fanlari nomzodi, dotsent

Ilm-fan ahli, faylasuflar va pedagoglar o‘rtasidagi qizg‘in bahs-munozaralar maydonida ikki qutb shakllangan kuzatilmoqda: bir tomon texnologik determinizm g‘oyasiga tayanib, yaqin kelajakda “temir o‘qituvchilar” jonli muallimlarni to‘liq siqib chiqarishini bashorat qilsa, ikkinchi tomon inson omilining o‘rmini hech qanday algoritim bosa olmasligini qat’iy ta’kidlamog‘da. Mazkur masala shunchaki texnik yangilik emas, balki millat kelajagi, ma’naviyat va insoniylik taqdiri bilan bog‘liq jiddiy ijtimoiy hodisa hisoblanadi.

Avvalo, vaziyatga xolis va ilmiy nuqtayi nazardan yondashadigan bo‘lsak, sun’iy intellektning imkoniyatlarini inkor etish nodonlik bo‘lar edi. Raqamli texnologiyalar tez ishlash, millionlab manbalarni bir soniyada qiyosiy tahlil qilish va eng maqbul yechimni taqdim etish salohiyatiga ega. Ayniqsa, aniq fanlar, dasturlash, muhandislik chizmalari va murakkab biologik jarayonlarni modellashtirishda sun’iy ongning beqiyos ko‘magini rad etib bo‘lmaydi. Biroq masalaning ikkinchi tomoni ham mavjudki, aynan shu nuqtada texnik taraqqiyotning chegaralari yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ta’lim shunchaki axborot uzatish emas, balki energiya, hayotiy tajriba va ruhiy holat almashinuvi o‘z ichiga olgan ikki tomonlama jarayondir. Sun’iy intellekt quruq ma’lumotni yetkazishda insonni ortda qoldirishi mumkin, ammo u o‘quvchining ko‘zidagi uchqunni, ovozidagi titiroqni yoki yuzidagi yashirin xavotirni payqash qobiliyatidan mahrum.

Shu o‘rinda tariximizga, buyuk mutafakkirlarimiz merosiga nazar solish ayni muddao. Bobokalonimiz Muhammad al-Xorazmiy matematik aniqlikni yuksak qadrlagan bo‘lsa-da, insoniy kamolotni hamma narsadan ustun qo‘ygan. Sharq falsafasida ilm va odob tushunchalari doimo egizak qadriyatlar sifatida talqin qilingan. Agar ilm aqlning chirog‘i bo‘lsa, odob qalbning bezagidir. Bordi-yu, biz ta’lim jarayonini to‘liq avtomatlashtirsak, o‘quvchilarga faqat “chiroq”ni berib, ularni “bezak”dan mahrum qilgan bo‘lamiz. Natijada eng zamonaviy bilimlarga ega bo‘lsa-da, biroq qalbi qashshoq, o‘zgalar dardiga befarq va jamiyat manfaatlarini shaxsiy ambitsiyalaridan

so‘nggi nafasidagi iztiroblarini, Cho‘lponning millat qayg‘usida bitgan satrlaridagi olovni o‘quvchi qalbiga faqat yuragi urib turgan, shu tuproqning issiq-sovuq‘ini tatigan muallimgina singdira oladi. Milliy o‘zlikni anglash, or-nomus va andisha kabi o‘zbekona tushunchalar borki, ularni hech qanday dasturiy kodga aylantirib bo‘lmaydi. Bular qondan qonga, jondan jonga o‘tadigan muqaddas qadriyatlaridir.

Yana bir muhim jihati nazardan qochirmaslik lozim, u ham bo‘lsa o‘quvchining ruhiy-psixologik holati va shaxsiy fojialari bilan ishlash masalasidir. Maktab yoshidagi bola hali shakllanib ulgurmagan niholga o‘xshaydi. Uning hayotida oilaviy kelishmuvchiliklar, o‘smirlik

vazifasini bajarishi har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Internet turli yot g‘oyalar, zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi kontentlar va milliy mentalitetimizga zid axborotlar bilan to‘lib-toshgan. Yosh, hali dunyoqarashi to‘liq shakllanmagan avlod sun’iy intellekt taqdim etgan har qanday ma’lumotni mutlaq haqiqat o‘laroq qabul qilishi mumkin. Aynan shu nuqtada o‘qituvchi o‘quvchida tanqidiy fikrlash, oqni qoradan ajratish va har qanday axborotga tahliliy yondashish ko‘nikmasini shakllantiradi. Bizga shunchaki ma’lumotlar bazasi emas, balki o‘sha ma’lumotlardan to‘g‘ri xulosa chiqaradigan, mustaqil fikrli shaxslar kerak.


Bugun ilgari surilayotgan Uchinchi Renessans g‘oyasi negizida ham aynan ma’rifatli jamiyat va yuksak ma’naviyatli shaxsni tarbiyalash maqsadi yotadi. Shu o‘rinda “ustoz-shogird” an‘anasining jamiyatimizdagi o‘rmi haqida alohida to‘xtalish lozim. Bu shunchaki ta’lim berish shakli emas, balki Sharq xalqlariga xos noyob ijtimoiy institutdir. Ustoz nafaqat hunar o‘rgatadi, balki shogirdining hayot yo‘lini belgilashda, jamiyatda o‘z o‘rmini topishda ma’naviy ota vazifasini bajaradi. Sun’iy intellekt sizga mukammal kod yozishni yoki chet tili o‘rgatishi mumkin, lekin hayotiy donishmandlikni, sabr-qanoatni va insoniylik burchini o‘rgata olmaydi. Bizning maqsadimiz texnologik jihatdan savodli, shu bilan birga, milliy qadriyatlarga sodiq, ota-onasini hurmat qiladigan va vatani oldidagi burchini chuqur his etadigan komil insonni voyaga yetkazishdir.

Dunyo tajribasiga nazar solsak, Yaponiya yoki Finlyandiya texnologiya eng yuqori darajada rivojlangan bo‘lsa-da, u yerda muallimning jamiyatdagi obro‘si hamon eng yuqori pog‘onada turibdi. Chunki ular texnologiya insonni yolg‘izlatib qo‘yishi, jonli mulohot yetishmasligi esa jamiyatda depressiya va o‘z joniga qasd qilish kabi ayanchli holatlar ko‘payishiga olib kelishini chuqur anglab yergan. Maktab faqat bilim oladigan joy emas, balki ijtimoiylashuv shaklani, ya’ni bolaning jamiyat a’zosi sifatida shakllanish hududidir. Bu yerda u do‘stlashishni, jamoa bo‘lib ishlashni, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etishni va o‘zgalar fikrini hurmat qilishni o‘rganadi. Sun’iy intellekt vositasida uydan chiqmay ta’lim olgan bola kelajakda odamlar bilan mulotoqta kirishishda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelishi, in’oni jamiyatdan ajralgan holda his qilishi ilmiy tadqiqotlarda o‘z tasdiq‘ini topmoqda. Shuning uchun jonli maktab va jonli muallim har qanday davrda ham insoniyatning eng muhim ehtiyoji bo‘lib qolaveradi.

Yana bir muhim jihat — axloqiy va milliy qadriyatlar masalasidir. Global tarmoqdagi ma’lumotlar har doim ham xolis bo‘lavermaydi. Sun’iy intellekt algoritmlarini yaratuvchilar o‘z dunyoqarashlari va manfaatlarini dasturga singdirishi ehtimoli yuqori. Agar biz farzandlarimiz tarbiyasini nazoratsiz ravishda sun’iy intellektaga topshirib qo‘ysak, retaga ular bizning emas, balki o‘sha algoritmni yaratganlar qadriyatlari bilan yashaydigan insonlarga aylanishi hech gap emas. Muallim esa milliy mafkura himoyachisi sanaladi. U har darsda, har bir subhatta o‘quvchining qalbidat vatanga muhabbat tuyg‘usini uyg‘otadi. Shuning uchun ta’limdagi inson omili milliy xavfsizlik darajasida muhimdir.

Kelajak maktabini tasavvur qilganda, biz partada o‘tirgan, faqat planshetga tikilgan bolalarni emas, balki ko‘zlarida ilmga chanqoqlik yonib turgan, ustoz bilan bahs-munozara qilayotgan, tabiatni, jamiyatni va o‘zini anglashga intilayotgan yoshlarni ko‘rishimiz kerak. Texnologiya bizga vaqtni tejashga yordam beradi, lekin o‘sha tejalgan vaqtni biz bir-birimizni tushunishga, mehr ko‘rsatishga sarflashimiz zarur. Agar sun’iy intellekt o‘qituvchini qog‘ozbozlikdan qutqarsa, o‘qituvchi bu vaqtni o‘z ustida ishlashga va o‘quvchilar bilan ko‘proq vaqt o‘tkazishga yo‘naltirishi lozim. Maqsad o‘qituvchini almashtirish emas, balki uning imkoniyatlarini kengaytirish, uni “super mutaxassis”ga aylantirishdir. Zotan, eng mukammal texnologiya ham inson qo‘lida shunchaki temir bo‘lagi bo‘lib, agar unga inson aqli va qalbi jo‘r bo‘lmasa, foydasiz matohga aylanadi.

Sun’iy intellekt davrida o‘qituvchining roli kamaymaydi, aksincha, yanada murakkablashadi va mas’uliyati ortadi. Endi muallimdan shunchaki bilim beruvchi retranslyator emas, balki axborot okeanida to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatuvchi mayog‘ va quvchining ruhiy dunyosini asrovchi qalqon va uning shaxsiyatini kamol topituvchi me’mor bo‘lish talab etiladi. Texnologiya qanchalik rivojlanmasin, jamiyat hayotida muallimning o‘rni quyosh kabi so‘nmas va abadiy bo‘lib qolishi muqarrar. Chunki mashina insonni yengillashtirishi mumkin, lekin uning o‘mini boshishga, undagi shuur va qalb haroratini yaratishga qodir emas. Bizning vazifamiz ilmiy taraqqiyot yutuqlaridan oqilona foydalangan holda, ta’limda insoniylik omilini saqlab qolish hamda kelajak avlodini aqil va ma’naviy jihatdan barkamol etib tarbiyalashdan iboratdir. O‘zbekistonning yorug‘ kelajagi ham aynan o‘z kasbini fidoyilik bilan bajarayotgan, zamon bilan hamnafas, ammo milliy o‘zligiga sodiq muallimlar qo‘lida ekanini unutmashligimiz zarur.



past qo‘yadigan “raqamli manqurtlar” avlodi paydo bo‘lish xavfi ortadi. Vaholanki, biz bunoyd etayotgan yangi O‘zbekiston poydevori aynan yuksak ma’naviyat va ma’rifat uyg‘unligiga asoslanadigan.

Sun’iy intellekt qanchalik mukammal dasturlashtirilmasin, unda garchi idrok etish qobiliyati mavjud bo‘lsa-da, insonning eng oliy ne’mati sanalagan shuur tushunchasi unga yotdir. Shuur shunchaki fikrlash emas, balki his qilish, hamdard bo‘lish, o‘zgalar quvonchi va qayg‘usini yurakdan o‘tkazish hamda vatanparvarlik, milliy g‘urur kabi yuksak tuyg‘ularni anglash demakdir. Tasavvur qiling, tarix darsida vatan himoyasi uchun jon fido qilgan qahramonlar haqida so‘z ketmoqda. Sun’iy intellekt jang sanalari, ishtirokchilar soni va strategik xaritalarni mukammal tasvirlab berishi mumkin. Ammo Jaloliddin Manguberdingning

davri inqirozlari yoki o‘ziga ishonchsizlik holatlari tez-tez uchrab turadi. Bunday vaziyatda unga sovuq ekran va bexato ishlaydigan robot emas, balki boshini silaydigan, dardini eshitadigan va to‘g‘ri maslahat beradigan inson kerak bo‘ladi. Pedagogikada “empatiya” degan tushuncha mavjud bo‘lib, u o‘zini boshqaning o‘rniga qo‘ya olish qobiliyatini anglatadi. Sun’iy intellektda esa empatiya yo‘q, unda faqat simulyatsiya bor. Simulyatsiya qilingan hamdardlik esa hech qachon haqiqiy insoniy mehning o‘mini bosa olmaydi. Shu sababli sinfonadagi muhitni his qilish, kerak bo‘lsa, dars rejasini bir chetga surib, o‘quvchilar bilan dildan subhatlashish faqat ustozgagina xos fazilatdir.

Zamonaviy dunyoda axborot xurujlari va “fake” (soxta) ma’lumotlar ko‘payib borayotgan bir pallada o‘qituvchining “filtr”

Pedagogik faoliyatning yana bir qirrası ijdokorlik va kutilmagan yechimlar bilan bog‘liq. Sun’iy intellekt qanchalik rivojlangan bo‘lmasin, u baribir avvaldan kiritilgan ma’lumotlar bazasi asosida ishlaydi, ya’ni “qolip” ichida fikrlaydi. Haqiqiy kashfiyotlar, san’at asarlari va innovatsion g‘oyalar esa ko‘pincha qoliplarni buzish, mantiqsizdek tuyulgan narsalarni birlashtirish orqali dunyoga keladi. Inson miyasi assosiativ fikrlash, intuitiv sezish va ilhomlanish xususiyatiga ega. O‘qituvchi o‘quvchidagi mana shu uchqunni ko‘ra oladi va uni alanga oldiradi. Mashina esa nostandart fikrlagan bolani ko‘pincha “xato qiluvchi” deb baholashi mumkin. Tarixda ko‘plab daho olimlar maktab dasturiga sig‘magan, ularni faqat o‘z ishining fidoyisi bo‘lgan ustozlarga kashf eta olgan. Demak, ijodiy tafakkuri rivojlantirishda inson omili hal qiluvchi kuch bo‘lib qolaveradi.

Tabiatni asraylik!

YOQILGANI — XAVF, KO‘MILGANI — KONI FOYDA

Daraxt barglari yil davomida turli zaharli gazlar, chang va og‘ir metall zarralarni yutib, atmosfera havosini doimiy ravishda kislorod bilan boyitib turadi. Biroq har bir mavsumning o‘ziga xos jarayoni bor. Xazonrezgi fasli kelishi bilan yil davomida o‘z vazifasini sidqidildan ado etgan barglar sarg‘ayib, to‘kiladi. Bir qarashda kuz faslida bog‘ va ko‘chalarda yer yuziga gilamday yoyilgan barglar tabiatga o‘zgacha go‘zal manzara bag‘ishlaydi. Lekin ushbu manzarali “xazon poyandozi” bilan muomala qilish ancha vaqt va mehnat talab qiladi.

Ayniqsa, shahar sharoitida tozalik maqsadida qurigan barglarni yig‘ib, yoqib yuborish holatlari tez-tez kuzatiladi. Afsuski, bunda ko‘pincha barg bilan birga plastik chiqindilar, polietilen paketlar va boshqa sun’iy materiallar ham olovga tashlanadi. Buning oqibatida havoga turli zaharli moddalar tarqalib, biz nafas olayotgan muhitda go‘yo “zaharli tuman” hosil bo‘ladi. Bu esa nafaqat tabiatning o‘ziga, balki inson salomatligiga ham katta zarar yetkazadi. Tibbiy ma’lumotlarga ko‘ra, tutundagi zararli moddalar, avvalo, o‘pkani zararlab, keyinchalik qon aylanish tizimi orqali butun organizmga tarqaladi. Shu bois, nafaqat o‘pka, balki buyrak, jigar, bosh miya va asab tizimi ham jiddiy ta’sirga uchraydi. Shuning uchun barg va chiqindilarni yoqish shunchaki oddiy

odat emas, balki tabiat va salomatligimizga qarshi sodir etilayotgan eng katta xatarlardan biri ekanini anglashimiz lozim.

— Barglar, shox-shabbalar yoki boshqa o‘simlik qoldiqlarini yoqish ortidan havoga tarqaladigan tutun inson salomatligi uchun jiddiy xavf tug‘diradi, — deydi ekolog Narzulla Quvondiqov. — Aynan shunday salbiy oqibatlarining oldini olish maqsadida ekologiya sohasi xodimlari tomonidan doimiy ravishda ogohlantirish ishlari olib borilmoqda. Ular aholi va fermerlarga o‘simlik qoldiqlarini yoqish ortiqcha xavf tug‘dirishini, bunday holatlarga mutlaqo yo‘l qo‘yilmasligini eslatib kelmoqda.

Qonunchilikda ham bu masala qat’iy tartibga solingan. Xususan, dala yoki aholi punktlarida xazon, shox-shabbalar yoki

o‘simlik qoldiqlari yoqilishi aniqlansa, bularni sodir etganlar jarimaga tortiladi. Ushbu tartib joriy qilinishi aholining ekologik madaniyatini oshirish, atrof-muhit va inson salomatligini asrashga qaratilgan. Shunday ekan, har birimiz tabiatga befarq bo‘lmashligimiz, o‘simlik qoldiqlarini yoqish kabi xavfli amallarga yo‘l qo‘ymasligimiz lozim.

Atmosfera Yer sharini o‘rab turgan himoya qatlami bo‘lib, u tirik organizmlarni turli ultrabinafsha nurlar va boshqa zararli ta’sirlardan muhofaza qiladi. Boshqacha aytganda, bizning hayot kechirishimiz, toza havodan nafas olishimiz ham shu qatlamga bog‘liq. Anglashimiz lozimki, xazonni yoqish kabi amallar ana shu himoya qatlami uchun eng katta xatarlardan biri. Shu bois, ularning oldini olish va ehtiyot choralarini ko‘rish

juda muhim. Chunki bu nafaqat himoya tizimi samaradorligini saqlab qolishga, balki kelajakdagi ehtimoliy xatarlarni ham kamaytirishga xizmat qiladi.

Shu o‘rinda masalaning agrar jihatiga e’tibor qaratsak: xazon yoqish oqibatida tuproq qatlamining foydali mikroorganizmlari — chuvchalanglar va mayda hasharotlar ham nobud bo‘ladi. Agar maysalarga o‘t qo‘yilsa, olov juda tez tarqalib, boshqarib bo‘lmash kuchga aylanadi va bu daraxtlar, o‘rmon, hatto uylarga ham zarar yetkazishi mumkin.

Tabiat — puxtalik bilan ishlaydigan mexanizm. Barcha daraxtlar va o‘simliklar bahorda o‘sadi, barg yozadi, yozda mevaga kirib, kuzda esa asta-sekin sarg‘ayib, o‘z umrini poyoniga yetkazadi hamda yer bog‘riga singishga intiladi. Bu jarayonlar bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lib, umumiy muvozanatni ta’minlaydi. Kuz faslida daraxtlardan to‘kiladigan barglar ham ana shu aylanishning muhim qismi hisoblanadi: ular chirib, tuproqni organik moddalar bilan boyitadi va keyingi o‘simliklar rivojiga zamin yaratadi. Bir qator mamlakatlarda to‘kilgan barglarni yig‘ib olish amaliyoti yo‘q, chunki bu jarayon tabiiy o‘g‘it shakllanishiga xizmat qiladi. Aksincha, barg yoqib yuborish atrof-muhitga zarar yetkazib, tabiatning tabiiy muvozanatini buzadi.

— Bir katta daraxtdan o‘rtacha 170-220 kilogramm barg to‘kiladi. Hatto bir tumaning o‘zida yiliga yuz minglab tonna barg yig‘ilishi mumkin va bu ulkan organik resurs hisoblanadi, — deydi agronom G‘ayrat Islomov. — Agar barglar ko‘milsa, chirib, tuproqda gumus

hosil bo‘lishiga katta hissa qo‘shadi. Gumus tuproq tarkibini yaxshilab, uni yumshoq qiladi, suvni ushlab qolish xususiyatini oshiradi. Shu sababli o‘simlik ildizlari yaxshi rivojlanadi va yuqori hosil berishi ta’minlanadi. Xazon tarkibidagi azot, fosfor, kaliy, kalsiy va magniy kabi moddalar tuproqning mineral tarkibini tiklaydi. Barg yerga ko‘milganda yoki maydalalib yuzada qoldirilganda, tuproqni qurib qolishdan saqlaydi, qishda daraxt ildizlarini muhofaza qiladi. Yerga ko‘milgan barglar mikroorganizmlar va chuvchalanglar uchun ozuqa manbai bo‘lib, ularning faolligini oshiradi. Bu esa tuproqda moddalar aylanishini tezlashtirib, unumdorligini tabiiy ravishda ko‘paytirib boradi. Jonli va faol ekotizim esa har qanday bog‘ yoki polizda sifatli hosil olishning asosiy omillaridan biri sanaladi.

Aslida, hammasi oddiy: kuzda daraxtdan to‘kiladigan barglar qoplarga solinsa, qish davomida chorva uchun yaxshi ozuqa bo‘ladi, yerga ko‘milsa, kelgusi bahorda foydali o‘g‘itga aylanadi. Shu tarzda barglardan oqilona foydalanish ham tabiatni muhofaza qilishga, ham qishloq xo‘jaligi uchun qo‘shimcha manba yaratishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, xazonni yoqish o‘rniga uni yerga ko‘mish — agronomik jihatdan eng to‘g‘ri va samarali yechim. Bu tuproqni organik moddalar bilan boyitadi, biologik faollikni oshiradi, hosildorlikni ko‘paytirib, tabiatni asrashga xizmat qiladi.

Shuhrat NORMURODOV, jurnalist

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Бокрока” gazetolari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyatda kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 10447-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-1246.
34655 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.